

TARIXI MUHAMMADIY

SO'ZBOSHI

Bilmak kerakkim, har bir musulmon bolasi, xohi er kishi, xohi xotun kishi, xohi yosh, xohi qari, mana shu tubandagi to'rt narsaning tarixini bilishi albatta lozimdur.

I. Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom tarixlari.

II. Qur'oni karim tarixi.

III. Dini Islom tarixi.

IV. Ka'batulloh tarixi.

Shuning uchun, men faqir — Alixonto'ra Shokirxonto'ra o'g'li Sog'uniydurmankim, bizlardin keyingi avlod nasllarimizga va ham boshqa turkiy tillik vatandosh, din qarindoshlarimizga mendan yodgor bo'lsin deb yuqoridagi to'rt narsa tarixini har qandoq kishi tushungudek qilib, ochiq turkiy tilida yozdim. Bu kitobga «Tarixi Muhammadiy» deb ot qo'ydim. Buni o'qiguvchilar faqirni duolarida yod qilib qo'yishlarini umid qilurman.

BUYUK USTOZ HAQIDA SO'Z

«Tarixi Muhammadiy» muallifi Alixonto'ra Sog'uniyini asrimizning ko'plab ulamoi fozillari o'zlarining buyuk ustozlari deb biladilar. Zero, ul zoti bobarakotning serfayz va ta'sirchan suhbatlaridan bir lahza bahramand bo'lgan har bir tolibi sodiq yillar davomida o'zga ustozlardan olgan saboqlari yoki yuzlab mutolaa qilgan kitoblardan olgan ma'lumotlaridan ham ziyodroq istifoda etar edi, desam mubolag'a bo'lmas. Kamina esa bir lahza emas, Tangriga behad shukrlar aytamankim, ul ustozni kullning darsgo'ylik davralarida va fayzli suhbatlarida ko'p bo'lganman va ko'pdan-ko'p ilmiy ishtibohlarimni so'rab o'ta qoniqarli javoblar olganman.

Hamon esimda, 1971 yili Marg'ilon shahriga borganlarida bir ilmiy suhbatda hozirlarning ko'pchiligi tolibi ilmlar ekanini nazarda tutib, ahli majlisga Qur'oni karimdan Val-asr surasini tafsir qilib bergan edilar. Sura eng qisqa suralardan bo'lib, atigi uch oyat — ikki satr bo'lishiga qaramay ustoz roppa-rosa ikki soat tahlil etib, oyatlarning har bir kalima, hatto harfi zimnidagi hikmati va nuqtalarini shunchalik hakimona sharxlar edilarki, diqqat bilan some' bo'lib turgan ulamo va toliblar boshlariga qush qo'ngandek sukut saqlagan holda vujudlari quloq bo'lib, har bir so'zlarini uqib olishga va mag'zini chaqishga harakat qilar edilar.

Darhaqiqat, ustoz ilmu hikmatning bir-ikki sohasida emas, balki ilmi qiroat, tafsir, hadis, fiqh, nahv, balog'at, mantiq, tib, tarix, siyrat, jug'rofiya, nazmu nasr va boshqa fanlar bo'yicha ham yetuk mutaxassis edilar.

Endi ushbu siyrati nabaviyya faniga mansub «Tarixi Muhammadiy» asari xususida ham biroz to'xtalib o'tishga to'g'ri keladi.

Islom tarixi va janob payg'ambarimiz Muhammad alayhis-salotu vas-salomning hayotlari va faoliyatlari to'g'risida hozirgacha arab, fors, turk va boshqa sharq va g'arb tillarida juda ko'plab asarlar yozilgan. Lekin Alixonto'ra Sog'uniyning ushbu asari ularning xulosasi bo'lishi bilan birga, ma'lumotlarining ishonchli manbalardan olinganligi, har bir tarixiy voqea bayonidan keyin muallifning unga nisbatan o'z fikr-mulohazalarini ibratli ravishda izhor etganlari va asarga imkoni boricha badiiylik kiritib har qanday kitobxonni o'ziga rom etishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Mening fikrimcha, asarni bir marta o'qib chiqishning o'zi kifoya qilmaydi, balki shu muhim manbaga tez-tez murojaat qilib turish kerak. Tabiiyki, har safar yangi-yangi tushunchalar kashf etilib, kitobxonda o'zgacha taassurotlar hosil bo'ladi. Bu faqat kaminaning fikri emas. Asarni mutolaa qilib chiqqan ko'pdan-ko'p do'stlarimiz ham ushbu gapni takrorlab turadilar. Ayniqsa, imom-xatiblar, ulamoi kiromlar va tolibi ilmlarning har birlarida ushbu noyob asardan bo'lishini tavsiya etardim. Zero, hozirgi kunimizda Islom tarixi bo'yicha o'z ona tilimizda batafsil yozilgan bundan o'zga asar yo'q. Bundan tashqari bu fanga doir har qanday kitob uning o'rnini bosa olmaydi. Xullas, «Tarixiy Muhammadiy» kitobini har qancha ta'rif va tavsif qilinsa, kamlik qiladi. Yaxshisi, asarning o'zini qunt bilan mutolaa qilib, uning serqirrali ma'lumotlaridan, fayzu futuhli mazmunlaridan bahramand bo'lgan kitobxongina bunday ta'riflarda mubolag'a yo'q ekaniga to'la ishonch hosil qiladi.

Hadisi sharifda vorid bo'lganki, ba'zi bir qilingan xayrli ishlarning savobi insonning vafotidan keyin ham to ro'zi qiyomatgacha uning nomai a'moliga bitib turilar ekan. Ustozimizning ushbu asari xuddi shunday solih amallardandir. Binobarin, uni o'qib, foydalanuvchi barcha kitobxonlar nomidan ul zoti sharifning haqlariga duoi xayrlar qilib qolamiz.

Abdulaziz MANSUR

Bismillahir rohmanir rohiym

Allohga beadedad hamdu sanolar bo'lsinki, qo'lingizda «Tarixi Muhammadiy»ning to'liq kitobi turibdi.

Asar muallifi Alixonto'ra Sog'uniy Shokirxo'ja eshon o'g'li, Muhammadxo'ja o'g'li, Mirniyoz o'g'li erurlar.

Buyuk insonlar haqida yozish hamisha sharaflig, mas'uliyatli va shu bilan bir vaqtda o'ta murakkab vazifadir. Bobomiz 1885 yil 21 martda sobiq Turkiston o'lkasining To'qmoq shahrida o'zbek oilasida tug'ilganlar. Naqshbandiy sulukiga mansub ulamolardan bo'lmish katta bobomiz Shokirxo'ja eshon boshqalardan uquvchanligi, tirishqoqligi va zehn-zakovati bilan ajralib turadigan ikkinchi o'g'li Alixonto'rani katta o'g'li Olimxonto'ra bilan birga uzoq Arabistonga o'qishga yuboradilar.

Talabalik yillaridayoq olamdagi ijtimoiy voqelikni, siyosatni tub mohiyati bilan anglay boshlaydilar. Ilmgga chanqoq bu talabaning yoshlikdan amal qilib yurgan shiori «Al-ilmu fis-sig'ari kan-naqshi alal-hajari», ya'ni «Yoshlikda egallangan bilim — toshga o'yilgan naqsh» edi.

O'z g'ayrat-intilishlari bilan pirovardida bobomiz o'z zamonasining zabardast olimi, buyuk allomasi bo'lib yetishdilar. Lekin taqdiri azal hamma zamonlarning ulug' sardorlariga qilgan «marhamatini» bobomizdan ham darig' tutmadi. Sovetlar iskanjasida yashayotgan musulmonlarning ozodligi haqida faol tashabbuslari sabab ta'qib qilina boshlagach, 30-yillarda u kishi oilasi bilan Xitoyga o'tib ketadilar. Sababki, eng g'ayriinsoniy mafkura asosida qurilgan chirkin sovet tuzumining tub mohiyatini hammadan oldinroq anglaganlar. Tafakkur va ma'rifat dushmanlari Xitoyga ham allaqachon yetib borishgandi. Natijada ular 1937 yil bobomizni umrbod qamoq jazosiga mahkum qiladilar. Allohning marhamati bilan, 1941 yil bu jazodan ozod bo'lib, maxfiy «Ozodlik jamiyati»ga rahbarlik qiladilar. Shunday qilib, butun Shin-Jon o'lkasida juda katta ozodlik harakati boshlanadi. 1944 yilgi qurolli qo'zg'olon natijasida «Ozod Sharqiy Turkiston» respublikasi barpo etiladi. Chankayshi va gomindanchilarning deyarli yuz ming kishilik armiyasiga qarshi ketma-ket olib borilgan shiddatli janglarda ular tor-mor

etiladi. Milliy Armiyaning Bosh qo'mondoni Alixonto'raga Marshal unvoni beriladi va u kishi Sharqiy Turkiston jumhuriyatining birinchi prezidenti etib saylanadi.

Shunday qilib, bizning O'zbekistonga deyarli uch barobar keladigan ulkan hududda yana bir islom davlati vujudga keladi. Bu esa dahriylik asosida qurilgan sovet davlati rahbariyatini qattiq tashvishga soladi. Oqibatda qonxo'r Stalinning buyrug'i bilan, jinoyatchilar bobomizni muzokaraga taklif qilish bahonasi bilan o'g'irlab ketishadi. O'ttiz ming fidoiy yigitlardan tuzilgan muntazam armiya hamda milyonlab vatanparvar musulmonlar esa mung'ayib qolaverishgan. Toshkentda bobomiz bir necha yil uy mahbusi bo'lib o'tirganlar.

Shunday nohaqliklar oqibatida faol siyosatdan voz kechishga majbur etilgan, qalbi qayg'u-hasrat, dardu alamga to'lgan, ammo o'z e'tiqodi, o'z mafkurasidan zarracha chekinmagan jafokash inson ilmu fan tadqiqotlariga sho'ng'ib ketadilar.

Bobomizning bunday og'ir kunlarni boshlaridan kechirishlari janobi Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning bir hadisi shariflarida kelgan mazmunni beixtiyor eslatadi, Ul zot aytgan ekanlar: «Baloyu ofat, g'urbat va musibatlarning eng qattig'i bu dunyoda payg'ambarlarga, so'ng ularning xayrli ishlarini davom ettiruvchi ulamolarga, so'ng shularga o'xshash solih kishilar boshiga kelishi muqarrardir».

Bu hadisi sharif ruhini tanlariga singdirib olgan bobomiz qanchalik ko'p zulmu sitam tortsalar ham taqdir egasi ustidan hargiz shikoyat qilmas, balki shukr va mamnunlik bajo keltirar edilar.

Alixonto'raning Toshkentda o'tgan so'ngi o'ttiz yillik umri ijodiy jihatdan juda sermahsul bo'lgan. Jumladan, Xerman Vamberining «Buxoro yoki Movarounnahr tarixi» kitobini, Ahmad Donishning «Navodirul Vaqoye» asarini hamda Darvish Ali Changiyning «Musiq» risolasini fors tilidan tarjima qildilar. Ayniqsa, «Temur tuzuklari» shoh asarini eski forsiydan tarjima qilib, «Guliston» jurnalida nashr qilganlarida (1967 yil) chinakam inqilob bo'lgan edi. O'shanda «qonxo'r Temur»ni ulug'lashga qanday haddi sig'di, deb bobomizga butun «katta rahbar»lar hujum qilgan, jurnalning bosh muharriri va Markazqo'mdagi qator mas'ullar ishdan olingandi. Vaholanki, bobomiz Amir Temurni o'zbek xalqiga tiriltirib berib ketgan edilar. Yaratganga shukrki, mana bizning kunlarga kelib Toshkentning markazida Sohibqiron Amir Temurga haykal o'rnatildi.

Bobomizning eng ulug' zoti oliylargagina xos sifatlaridan biri — mansabga intilish va shuhratparastlikdan yiroq bo'lganlaridir. Bir necha yil burun «Temur tuzuklari»ni kitob shaklida chop etdilar. Asarni bizning hozirgi tilimizga muvofiqlashtirib, bobomizning yoniga yana bir kishining ismi-sharifini qo'shib, Alixonto'raning tarjimasi sifatsiz va xatosi ko'p edi, asar deyarli qaytadan tarjima bo'ldi, deb bir professor olim tanqid qilib, so'zboshi yozibdi. Bobomizga bag'ishlangan katta anjumanda shogirdlaridan biri o'sha tanqidchi olimga qarata shunday degandi: «Ustozning shuhrat otiga mingashibsiz, lekin u kishini tanqid qilishga sizga kim huquq berdi. Axir buyuklar nuqsonini qidirish uchun hech bo'lmaganda ular darajasiga yaqinroq bo'lish kerak emasmi?» O'shanda katta zal bu gapdan larzaga kelgandi.

«Har bir davlat rahbari, podshosi agar «Temur tuzuklari»dan mukammal xabardor bo'lsa va unga amal qilsa, u eng odil, eng qudratli va yengilmas davlat podshosi bo'lishi muqarrar», degan edilar bobom.

Bobomiz kuchli tabib ham edilar, hatto saraton kasalining muolajasini bilganlar. Sovet tibbiyotida uzoq vaqt tan olinmagan seksopatologiya fanining bilimdoni ham Alixonto'ra Sog'uniy edilar.

Bobomiz qalamiga mansub «Shifo-ul ilal», ya'ni «Illatlar shifosi» asari ham mavjud. Unda ikki yuzga yaqin kasalliklar bayoni, tashxisi va davolash usullari berilgan.

Etuk siyosiy arbob va haqiqiy vatanparvar bo'lgan Alixonto'ra Sog'uniy «Turkiston

qayg'usi» degan katta asarning muallifidirlar. Bu asarda bizning xalqimiz qanday qilib bosqinchilarga qul bo'lib qolgani va qanday qilib dinni, Vatanni, millatni asrash kerakligi chuqur siyosiy-ijtimoiy mantiq asosida mukammal bayon etiladi.

«Tarixi Muhammadiy»ning yozilishi qanchalik kuch-g'ayrat, mashaqqatli mehnat va bilim-zakovat talab etgan bo'lsa, uni qabih kommunistik tuzum ta'qibidan asrash undan ham qiyinroq bo'lgan. Bobom deyarli yigirma yil mobaynida juda og'ir ahvolda, dindorlar quvg'inda bo'lgan yillari yozgan bu bebaho asarni avaylab zamoni saodatga, kelajak avlodga yetkazib berish uchun ko'p yillab uni yer ostida, hatto un qoplarida ham saqlaganlar.

O'zbekistonimiz istiqbolga erishgan bu dorulomon kunlarda adolat qaror topib, haqiqat ochiq aytilmoqdakim, yirik islomiy-falsafiy olimlarning yakdillik bilan e'tirof etishlaricha, «Tarixi Muhammadiy» XX asrning eng insonparvar, betakror, buyuk asarlaridan biri hisoblanadi. Kitobni oqqa ko'chirish, xattotlik esa yoshligidanoq eng oliy maqsadi Otaga xizmat qilish bo'lgan, bobomning suyukli farzandlari — mening padari buzrugvorim bo'lmish Muhammadyorxonto'ra zimmalarida edi. Biz yosh bola edik, dadamlar nihoyatda go'zal arabcha husni xatlari bilan tunu kun yozardilar.

«Turkiston qayg'usi»da bobomning shunday so'zlari bor: «mag'lubiyatga uchrab, dushmanlaridan yengilgan millatlar doimo qayg'u-hasratda qolib, xoru zorlik birla yashamoqqa majburdirlar. Har kimsaga ma'lumdurki, hayot olamida insonning eng sevgan, qadrlik, qimmatlik to'rt narsasi bordur. Bu to'rt narsaga ega bo'lmagan kishilar insonlik sharafidan mahrum bo'lurlar.

Alarning eng birinchisi shuldurki, har odam o'z erk va ixtiyoriga ega bo'lmog'i kerakdur. O'zida erki, qo'lida ixtiyori yo'q odamlarning hayvondan nima farqlari bor.

Ikkinchisi shulki, shar'iy yoki qonuniy kasblar orqali topgan molu dunyosi, qilgan mehnatining mevasi shul topguvchining o'z haqqi bo'lib, aning xos mulkidur.

Uchinchisi, har bir millatning haqiqiy onasi, u millatning tug'ilib o'sgan, ota-bobosidan meros qolgan Vatanidir. Ona Vatanni boshqalar tasarrufiga qoldirmoq — Vatan avlodlarining kechirilmas og'ir jinoyatlaridur, balki inson huquqlariga qilgan xiyonatidur. To'rtinchisi, har bir mamlakat xalqining asrlar bo'yi asralib kelayotgan muqaddas dinlaridur.

Endi yuqorida yozilmish bu to'rt narsaga ega bo'lmoq uchun har millatning butun huquqlari shu millatning o'z qo'lida bo'lishi shartdur».

Bobomiz tub ma'nodagi olim bo'lib, tibbiyot, falsafa, geologiya, tarix, matematika fanlarining yetuk olimlari — professor, akademiklariga ustozlik qilganlar. Shunday ekan, nima uchun matbuotda u kishining nomi eshitilmas edi, degan savol tug'ilishi tabiiy.

Avvalo, sovet hukumati Alixonto'raning nomini matbuotda tilga olishdan qo'rqqan.

Ikkinchidan, yaxshisi bir misol keltiray: «Sodiqov degan ToshMIning bir professori bobomizga qadimgi bir qo'lyozma ko'tarib keladi. Uni o'qishga hali hech kimning tishi o'tmagan ekan. Bobomiz salkam uch yuz yil ilgari forsiyda yozilgan bu qo'lyozma tibbiy asar ekanini aytib, uni darhol arabchaga va turkiyga o'giradilar va u kishiga qaytib beradilar. Professor darhol taqriz yozib, asarning u yer-bu yerini «tuzatgan» kishi bo'lib, o'zining nomidan bosib chiqaradi. Voqeadan xabardor bir shogirdlari bobomizning oldilariga kelib: «Anavi professor qo'lyozmani kattagina broshyura qilib, faqat o'z nomidan chiqaribdi, Sizning nomingizni hatto tilga ham olmabdi», deganida bobomiz xursand bo'lib: «Ha, barakalla, kitob qilibdimi, a? Necha ming dona kitob qilib bosibdi? Xalq o'qiydigan bo'libdi-da, baraka topsin!» degan edilar.

Bobomiz biz farzandlari uchun bir vaqtda ustoz ham bo'lganlar, mening o'zim uchun esa tub ma'nodagi haqiqiy inson timsoli edilar. «Bolaligimdan bir odatim bor, agarda ikkita choponim bo'lsa, uning yangisini birovga bergim kelaveradi», derdilar. Shu gaplari hech

yodimdan chiqmaydi.

Bir vaqtlar «saxovatli» sovet hukumati bergan katta hovlining bir qismini olib qolib, qolganini umrbod tayinlangan 500 so'm nafaqasi bilan qo'shib, bolalar bog'chasiga berib yuborgan edilar.

Endi u kishining sifatlarini sanayversak, alohida kitob bo'ladi. Alixonto'ra valiylik darajasiga yetishgan ulug' zot edilarki, uni ham qator ibratli voqealarda kuzatishgan. G'aribroq bir kishi to'y qilmoqchi edim, deb qarzga ikki ming so'm pul so'rab keldi. Men o'shanda bobomning yonlarida qaysidir bir dorini tayyorlashda yordam berayotgan edim. «Ma'qul, dedilar, biroz shoshmang, manavi dori tayyor bo'lsin, bolalaringiz bilan ichib yurasiz, yurak va oshqozonga quvvat bo'ladi». Shu paytda tujjor ixlosmand shogirdlaridan biri bobomiz ziyoratlariga kelib qoldi. Xol-ahvol so'rashib, bir piyola choy ichgach, uzr so'rab ketishga otladi va: «sizga atagandim, taqsir», deb qog'ozga o'ralgan pul berdi-yu, xayrlashib ortiga qaytdi.

U ketgach, bobom menga shu pulni sanatdilar. Pul roppa-rosa 2000 so'm ekan. «Mana pulingiz, Xudo sizning nasibangizni ham yetkazdi, bu pul qarz emas, sizga hadya», dedilar.

O'tirganlar bu karomat ishdan hangu mang bo'lib qolishdi. Boyagi odam esa yig'lay-yig'lay, duo qila-qila xayrlashdi.

Bobom: «Millatimiz ravnaqi uchun aql-zakovat, albatta, kerak, shu bilan birga u, shijoatu matonat, jismoniy barkamolliksiz yetarli bo'lmas», derdilar. Ular sportni sevardilar. Yoshliklarida kurashib kuraklari yerga tegmagan ekan. Sportchi bo'lishimga ham bobomiz sababchilar. Mening GULAG qamoqxonalarida, Sibir o'rmonlarida va Qozog'iston cho'llarida kechirgan deyarli o'n yil davom etgan mashaqqatli hayotim davrida avvalo, Allohning madadi hamda bobomning ruhlari va bergan ta'limlari hamisha rahnamo bo'lgan, Alloh ul zotdan rozi bo'lsin!

Bobomiz tengi yo'q notiq ham edilar. So'zlaganlarida nuroniy yuzlaridan mudom nur taralib turar, birorta ham keraksiz so'z ishlatmasdilar. So'zlashdan oldin biroz sukutga ketardilar, so'ng ohista so'z boshlab, o'qdek chaqnab chiqib, qalblarga malhamdek o'rnashadigan so'zlari-yu, qamrovi olam-jahon fikrlari bilan barchani o'zlariga maftun etardilar.

Alixonto'ra Sog'uniy ana shunday, Ozodlik, Vatan va millat farzandi edilarkim, o'zlari bashorat qilib o'ttiz yillar burun aytgan gaplari hozirgi kunda amalga oshayotir. Ozodlikka erishgan O'zbekistonimizni va boshqa ozod Turkiston xalqlarini ko'rib quvongan bo'lur edilar.

«O'zbek eli, ayniqsa, Toshkent ahli qut-barakot kindigida yashaydi, bu yerlarga aziz-avliyolarning duosi ketgan, bunda hech qachon ocharchilik, qahatchilik bo'lgan emas, bo'lmaydi ham, inshoolloh», degandilar bobomiz.

Aziz birodarlar, ushbu kitob Alixonto'ra Sog'uniy hazratlari tavallud topganlarining 120 yilligi oldidan u zot avlodlaridan sizning xonadon ahllaringizga munosib tuhfa bo'lar degan umiddamiz.

Bahmanyor SHOKIR

ISLOMGA DA'VATNING BOSHLANISHI

PAYG'AMBARIMIZNING NASABLARI VA TUG'ILISHLARI

Bilmak kerakkim, ummatman degan har bir odam, Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomni o'z ota-onasini tanigandek bilishi lozimdur. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam o'zlari arab naslidin, Quraysh qabilasi, Bani Hoshim urug'idin bo'lib, nomi shariflari Muhammaddir, sollallohu alayhi vasallam.

Tug'ilgan joylari Arabistonda Makka shahridur. Otalari Abdulloh, Abdullohning otasi Abdulmuttalib, uning otasi Hoshim, uning otasi Abdumanofdur. Ushbu to'rt otalarini bilishlik har bir musulmonga lozimdur. 11-otalari Quraysh, 21-otalari Adnondur. Payg'ambarimizning yuqorigi otalari Ibrohim Xalilullohdur. Onalarining otlari Ominadur. Payg'ambarimiz ota-onadin yolg'iz tug'ilgan, to'ng'ich o'g'ildir. Chunki payg'ambarimiz ona qornida ikki oylik bo'lgan chog'larida otalari Abdulloh Shom safariga ketayotib, Madina shahrida vafot topdilar, yoshlari o'ttizga yetmagan edi.

Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam hazrati Iso alayhissalomdin 571 yil keyin tug'ildilar. U zamonda Eron mamlakatida mashhur No'shiravon Odil podshoh edi. Odil podshoh zamonida tug'ildim, degan so'zlari marviydur. Rabbiul-avval oyining 12-si dushanba kechasi, sahar vaqtda dunyoga keldilar. Ona qornida yotishlari, onadin tug'ilishlari boshqa bolalardek bo'lmadi. Chunki onalari Omina og'ir bo'y xotunlardek qursoq og'irligini sezmedi, yuklik xotunlarga bo'ladurgan badan og'irchiliklarining hech birini bilmadi.

Ona qornida 6 oylik bo'lganlarida «Xudoning do'sti, oxirzamon Payg'ambariga yuklik bo'lding, — deb Ominaga tushlarida bashorat bo'ldi. — Bu muborak o'g'il tug'ilgan so'ngida oti Muhammad bo'lsin», deyildi.

Tug'ilish oy-kunlari tamom bo'lganda Allohning qudrati bilan hazrati Maryam, Fir'avnning xotuni hazrati Osiyo va boshqa bir necha hur qizlar bilan doyalikka hozir bo'ldilar. Bola tuqqan xotunlardek odatdagi to'lg'oq tortish, qursoq og'rig'i, qon kelishiga o'xshash narsalardin hech biri bo'lmadi. Payg'ambarimiz tug'ilganlarida poklik, tozalik bilan vujudga keldilar. Shundoqki, sunnat qilingan edilar. Kindiklari kesilgan, badanlari yog'langan, xush islik narsalar surtilgan holda tug'ildilar.

Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam dunyoga kelgan kechasida ul zotning sharaf va hurmatlari uchun Xudo taolo ko'p mo'jizalar ko'rsatdi. Ul zamonda olam hammasi kofiriston edi, o'tgan payg'ambarlarning ko'rsatgan haq dinlaridin odamlar adashgan edilar. Arab mushriklari tarafidin Baytullohga 360 dona but osilgan edi. Arablarning har bir urug'i o'zlariga atab, Baytullohga bir donadan but osib qo'yishni odat qilgan edilar. Mana shu butlar Payg'ambarimiz tug'ilgan kechada hammalari yuztuban yiqilib, yerga tushdi. Ertalab kelgan kofirlar bu holni ko'rib, hayron qoldilar. Va ham ona qornidan yerga tushgan chog'larida bir nur paydo bo'ldi, uning yorug'lig'idan Shom viloyatidagi Busro degan shaharning saroylari ko'rindi. Makka shahri bilan buning oralig'i 50 kunlik yo'l edi. Hozirgi Eron xalqi u zamonlarda hammalari otashparast kofir edilar. Tutgan dinlari esa majusiylar dini — o'tparastlik edi. Bularning otashkada, ya'ni ibodatxonalaridagi ming yillab, uzun zamonlardin beri o'chmay, yonib turg'on hisobsiz o'tlari Payg'ambarimiz ona qornidan tushgan chog'larida o'chib qoldi. Yana ul mamlakatda Sova degan bir ko'l bor edi, shul kechada yerga singib ketib Samova degan cho'ldan qaynab chiqdi. Ul cho'l suvga mo'l bo'ldi, ko'lga aylandi. Mana shunga o'xshash u kechada bir necha turli mo'jizalar paydo bo'ldikim, agar ularning hammasi bu o'rinda yozilsa, bir kitob bo'lur. Endi bu joyda aytganlarimiz daryodan bir cho'mich, xirmondan bir hovuch misoli bo'lsa ham qolganlarga ishorat, mo'minlarga bashoratdur.

Payg'ambarimiz tug'ilganlarini anglagach, bobolari Abdulmuttalib hammadin ortiqroq suyundi. Yoshligida o'lib ketgan bolasi Abdulloh din yodgor qolgan yolg'iz o'g'lim Muhammad, deb ko'p suyar edi.

EMIZDIRILISHLARI

U zamondagi shaharlik arablarning odatlari yangi tug'ilgan bolalarini sahrolik badaviy qabilalariga emizishga berur edilar. Atrofdagi badaviylarga har yili kuzda, ko'klamda emizishga bola olish uchun Makka shahriga kelish odat edi. Shuning uchun Bani-Sa'd urug'idin Halima degan xotun o'z qabilasidan chiqqan xotunlarga qo'shilib, o'zi bir oriq eshak minib, eri bir oriq tuya mingan holda chiqishgan edilar. Bularning mingan ulovlari holsizlikdan yaxshi yurolmay hammaning ortida qolishdi. Ular shaharga kelgunlaricha ilgari kelgan xotunlar ota-onalik boy bolalarni tanlab olishib ketgan edilar.

Payg'ambarimiz bir faqir oilaning yetim bolasi bo'lganligidan uni emizishga hech bir xotun ortiqcha qiziqmas edi. Hammaning keyinida qolgan Halima ham shaharga kirdi. Emizishga bola so'roqlab yurganida Payg'ambarimizning bobolari Abdulmuttalib ko'rib qolib, bizning bir yetim bolamiz bor edi, deb kelinlari Omina uyiga boshlab keldi. Hazrati Omina Halimani ko'rib, aytdikim:

— Bizni kambag'al, bolamni yetim demasanglar, emizishga berayin, — deb oq jun yo'rgakka o'ralgan Payg'ambarimizni Halimaga ko'rsatdi.

Halimaning ko'zi tushishi bilan mehri qo'zg'alib, so'l emchaklarini og'izlariga solgan edi, og'izlarini yumib, emmay qo'yidilar. Ikkinchi o'ng emchaklarini solganda, darhol ema boshladilar. Mana shu kundin tortib, to sutdan chiqqunchalik, so'l emchakni emakdosh bolaga qoldirib, o'zlari o'ng emchakni emishni odat qildilar.

Halima xotun bu muborak o'g'ilni olishi bilan ularning uylari xayru barakaga to'ldi. Nima ish qilsalar rivoj topib, tirikchiliklari tuzaldi. Suti ozligidan yolg'iz o'g'il to'ymasdan oriqlagan edi, qachonki Payg'ambarimizni emgizdi ersa, suti buloqdek bo'lib oqa boshladi.

Makkaga kelishda hammadin ortda qolgan, mingan eshagi, Payg'ambarimizni o'ngarib qaytar chog'ida hammaning oldiga tushib yurdi. Bu qutlik hayvonda bir turlik quvonchlik hol paydo bo'lib, ortiqcha kuch-quvvatga ega bo'ldi. Bu sirni ko'rgan yo'ldosh xotunlar hayron qoldilar. Va ham shu yillar yomg'ir yetarlik yog'may Arabistonda quruqchilik edi. Yerdan o't unmagan sabablik, hayvonlari oriq bo'lib, alarning sutlari so'g'olg'on (to'xtagan) edi. Tirikchiliklari chorva sut-qatig'iga suyangan ko'chmanchi arablar turmush to'g'risidin anchagina og'irchiliklar kechirmoqda edilar.

Payg'ambarimiz Halima xotun oilasiga qo'shilgandin so'ngra uning turmushi favqulodda tuzala boshladi, shundoqki, oriqlikdan ko'taram holga erishgan qo'y-echkilar xiyol o'tmay semirishga turdilar. Hech yerda chiqqan o't, yegan cho'plari ko'rinmasdin, yelinlari to'lib, sutlari oqib kelar edi. Halimaning butun oilasi ovqatga mo'l bo'lib, uy ichlari sut-qatiqqa to'ldi.

Bu sirning tagiga tushunmagan boshqa moldor qo'shni arablar Halima qo'y chisi qaysi yerda mol boqsa, sizlar ham shu joyda boqinglar, deb o'z molchilariga bek topshirur edilar. Ulug' qudrat tomonidan bo'lgan bu karomat sirlarini u bechoralar qaydin bilsinlar. Shundoq qilib, Halima xotun Payg'ambarimizni to'liq ikki yoshga yetguncha emguzdi. Shu yoshdayoq boshqa bolalardin unub-o'sishda ko'p farqlari bor edi. Emdid odat bo'yuncha sutdin chiqar vaqti yovuqlashdi. Halima va uning butun oilasi

Payg'ambarimizdin biror nafas ham ajrashga tob-toqatlari yo'q edi. Shundoq bo'lsa ham rasmu odatga qarab bolani sutdan chiqargani so'ngida Ominaga kelturdi. Bu muborak

bolaga mehri tushub ajrashga toqati yo'qligini bildirib yig'ladi. Bu qutluq oyog' o'g'il borg'ondin buyon bo'lgan barakalarni bayon qilib, mumkin bo'lsa besh-o'n yosh bo'lguncha tarbiyat qilishni so'radi. Omina Halimaga rahmi kelib, Payg'ambarimizni unga qaytarib berdi. Bundan so'ngra Halimaning qo'lida yana ikki yil turub yoshlari to'rtga to'ldi.

KO'KSI YORILISH VOQEASI

Mana shu yilda «Shaqqi Sadr» voqeasi bo'ldi. Ya'ni, farishtalar kelib, muborak ko'kraklarini yordilar. Bu qissa bayoni shundoq erdikim: badaviy arab bolalari odatlaricha Payg'ambarimiz ham to'rt yashar chog'larida emakdosh bola bilan birga qo'y, echki, qo'zilarni boqib yurishar edi. Bir kuni emakdosh o'g'il yugurgan holda yig'lab kelib xabar berdikim:

— Ukam Muhammadni oq kiyim kiygan ikki odam kelib ushlab oldi va uni yerga yotqizib, ko'ksini yorib qo'ydi, — dedi.

Halima eri bilan bu dahshatli xabarni eshitib, xushlari boshlaridan uchdi. Faryod-fig'on qilishib chopishib bordilar, ko'rdilarkim ranglari o'chgan, vujudlari o'zgargan holda turibdilar. Darrov quchoqlariga olishib:

— Ey o'g'ilchog'im, sizga nima bo'ldi? — deb so'radilar. Anda Payg'ambarimiz:

— Oq liboslar kiygan odam sifatida ikki kishi keldi, meni yotqizib, ko'ksimni yordilar, ichimga qo'l solib yuragimni chiqazib, uni tildilar, undan qora qonni oqizib tashlab, bir jom kavsar suvi bilan ko'p yuvib chayqadilar. «Mana, sendagi shayton nasibasi ketdi, endi senga shayton yo'l topolmaydur», deb yana qaytadan ko'ksimni tikishib qo'yib, g'oyib bo'ldilar, — dedilar.

Qarasalar ko'ksilarida yorganning nishonasi qolib, izi ko'rinib turibdir. Bechora Halima xotun eri bilan bu karomatning haqiqatiga tushunmay, bu ishning Xudo tarafidin bo'lganiga aqllari yetmay, ko'ngillariga turli xayollar kelib, ko'p qo'rqunchliklar tushdi. Bu ish jin-shaytonlar qasdidin bo'ldimi, deb gumon qilishdi. O'zlari Payg'ambarimizdin ajrashishlariga sira toqatlari bo'lmasa ham, bu hodisadin qo'rqib, nochor Payg'ambarimizni onalari Ominaga keltirib topshirdilar.

— Bu muborak bolaga bunday mehru muhabbat qo'ygan enagasi bizdin ruxsatsiz kelturdi, albatta, buning boisi bo'lsa kerak, — deb sababini Halimadin so'radilar, avvalda aytmay yashirib turgan bo'lsa ham, so'ngra bo'lgan voqeani bayon qildi va:

— Bu ish jin-shaytonlar tarafidin bo'lish imkoniyati bordur — dedi. Onalari Omina bu so'zga qarshi dedilarkim:

— Bu bolam Muhammad bo'yimga bitgandin boshlab, g'oyibdin ko'p ishorat-bashoratlar ko'rib kelganman. Bu bolaning sharofatini bildirish uchun tug'ut kechasida necha turli karomat ishlar bo'lib o'tgandir. Endi bundog' ulug' xosiyatlarga ega bo'lgan farzandim Muhammadga hech qachon jin-shaytonlar yaqinlasholmaydilar, — deb Halimaga hurmat ko'rsatib, ruxsat qildilar.

Shu chog'da Payg'ambarimiz to'rtga to'lib, beshga qadam qo'ygan edilar. Mana bu voqea Payg'ambarimizga yosh bolalik vaqtlarida bo'lgan mo'jizalarning birisidir. Buni «Shaqqi Sadr» deydurlar.

ONALARI BILAN MADINAGA SAFAR VA UNDA QAYTISHLARI

Bundan so'ngra Payg'ambarimizning onalari hazrati Omina: «Madinaga borib, bolamga otasi Abdulloh qabrini ziyorat qildiray va ham u joydagi tog'alari bilan ko'rishtirib kelay», deb Madina safariga niyat qilib, yo'lga chiqdi.

Bu safarda Ummu Ayman degan Abdullohding meros qolgan cho'rilari hamroh edi. Bir necha kun yo'l yurishib, salomat Madinaga yetishdilar. Makka shahri bilan Madina oralig'i tuya yurishida o'n-o'n ikki kunlik yo'ldur. Tog'a qabilasi ichida bir necha kun mehmonlikda bo'lishdi. Maqsad o'talgandin so'ngra yana Makkaga qaytdilar. Makka va Madina shaharlari orasidagi Abvo degan joyga kelganida onalari Ominada betoblik paydo bo'ldi va shu joyda ajal yetib, endigina besh yoshga kirgan farzandlarini dodaklari (cho'rilari) Ummu Aymanga topshirib, yosh juvonlik holda vafot etdi.

Mana shu joyga kelganda, ikki tog' orasida mehribon onalaridan ham ajrab, ota-onasiz yetim bo'lib, dodaklari Ummu Ayman qo'lida qoldilar. So'ngra bu joydin qo'zg'alib, Makkaga kelgandin keyin bobolari Abdulmuttalib ziyoda mehribonlik ko'rsatib, o'z tarbiyatiga oldi. Shu bilan bobolarining qo'lida yoshlari sakkizga yetdi. Bu chog'da Abdulmuttalibning yoshi yuzdin oshgan edi. «Har bir tug'ilgan kishi — o'limdir oxirgi ishi» degandek, bu kishi ham ajali yaqinlashib, betoblik to'shagida yotdi. O'n bir o'g'il, olti qizlari bor edi. Ularni yostiq ustiga chaqirib, vasiyat qildi:

— O'g'lim Muhammad onasidin yoshligida yetim qoldi, endi mendin ham ajrash vaqti yaqinlashdi. O'z o'rnimda Abu Tolibni vakil qildim, — dedi. So'ngra unga qarab aytdi: — Ey Abu Tolib, sen o'zing kambag'al odamsan va ham yosh bolalaring ko'pdur, shundoq bo'lsa ham o'g'lim Muhammadni senga topshirdim, chunki sen yumshoq ko'ngillik, muloyim so'zlik, ulug' hikmatlik kishidursan va ham Muhammad — og'ang Abdullohning o'g'lidur, mana shuning uchun ham Muhammadni senga topshirdim,— deb foniy dunyodin o'tdi.

AMAKILARI ABU TOLIBNING TARBIYASIGA O'TISHLARI

Otasi Abdulmutallibning vasiyaticha, Abu Tolib ham shu kundin boshlab, vafot bo'lgunchalik borliq kuch-quvvati bilan Payg'ambarimiz tarbiyalariga kirishdi. U zotni himoyat qilishda hech qandoq kamchilik ko'rsatmadi, shundoq bo'lib amakilari Abu Tolib tarbiyasida yoshlari o'n ikkiga erishdi. U zamondagi Quraysh xalqining har yili savdogarchilik bilan ikki qayta safarga chiqish odatlari bor edi. Qish faslida bo'lsa, Yaman shahriga, yoz kunlari Shom viloyatiga borib, savdogarchilik qilar edilar. Shu odatlaricha, Shom safariga tayyorlangan Quraysh karvonlariga qo'shilib, Payg'ambarimizning amakilari Abu Tolib ham chiqmoqchi bo'ldi. Endi jo'nar vaqtida Payg'ambarimiz kelib, tuyaning burundig'iga osildilar:

— Ey amaki, meni kimga tashlab ketasiz, men sizdan ajramayman, — deb ko'zlariga yosh oldilar.

Buni ko'rib, Abu Tolibning ko'ngli ezildi. Qarindoshlik mehri qo'zg'alib, ko'ziga yosh keldi va ham seni tashlab bu safarga chiqmayman, deb qasamyod qildi. Shuning bilan Payg'ambarimiz Abu Tolib tuyasiga mingashib safarga chiqdilar. Havo g'oyatda isigan vaqti edi, mana shu kundan boshlab, Payg'ambarimizning bosh ustilariga bir parcha oq bulut chiqib, soya solib turdi. Shom safaridin qaytib kelganchalik shu bulut soyasi sira ajramadi.

Alloh taolo o'z habibi Payg'ambarimizga bolalik kunlaridin boshlab shundoq mo'jizalarni berib, boshqalardin farqli qilgan edi. Makka shahri bilan Shom viloyatining oralig'i ersa, tuya yurishida qirq-ellik kun chamalik yo'ldur.

Quraysh karvoni bu yo'llarni yurib, manzillardin o'tib, so'ngra Shom tuprog'iga kirdilar. Shu yerda Busro shahri bo'lib, aning yaqinida bir savmaa, ya'ni nasoro so'fiylarining ibodatxonasi bor edi. Ana shunda uzun zamonlardin beri Buhayro otliq bir obid ibodat qilib yotur edi. Bu obid ersa, Iso alayhissalom keltirgan haq dinni tutgan, u yo'ldan adashmagan, Tavrot, Injil o'qigan katta olimlardin bo'lib, Payg'ambarimiz sifatlarini

Tavrot, Injil kitoblarida o'qib bilgan edi. Ul aytur edikim:

— Odam alayhissalomdin keyin ko'p payg'ambarlar o'tdilar, endi barcha payg'ambarlar ulug'i, Xudoning do'sti, oxirzamon Payg'ambari chiqar vaqti yaqinlashdi, ul o'zi arab naslidin chiqqay, Makka shahrida tug'ilib, Madina shahriga hijrat qilgay, yosh bolalik vaqtida Shom tuprog'iga kirgay, — der edi.

Bir kuni savmaa ustiga chiqib, Madina tarafiga qarab turib edikim, yiroqdin karvon qorasi ko'rindi. Alar yaqinroq yetib kelguncha payqab turdi. Qarasa, tuya mingan yosh bola tepasida bir parcha oq bulut soya solib turibdur. Buhayro rohib Tavrot, Injil kitoblarida o'qigan oxirzamon Payg'ambarining sifatlarini aniqlab bilish uchun, uzun tikilib turdi. Karvonlar ham qo'shlarini tushirdilar. So'ng Payg'ambarimiz bir daraxt tubiga kelib o'tirdilar. Qarab tursa, daraxt shoxlari egilib kelib, ustilariga soya tashladi. Mana bu karomatni ko'rib, obid ko'ngli qaror topdi.

Darrov savmaasiga kirib, karvonlar uchun bor ziyofat asbobini tortib, borib ularni mehmonga chaqirdi. Karvon xalqi ichida hammadin kichikrog'i Payg'ambarimiz edilar. Arablar odatlaricha yosh bola deb qo'sh-qo'lon saqlashga qoldirib, boshqalari ziyofatga hozir bo'lishdi. Rohib ko'rdikim, Payg'ambarimiz kelmabdurlar.

— Sizlardin kim qoldi? — deb so'radi. Alar esa:

— Ulug'larimizdin hech kim qolmadi, bir yosh bolamizdin boshqa barchamiz bormiz, — deyishdi.

Bu rohibning asl maqsadi esa, Payg'ambarimiz diydorlarini to'yib ko'rish edi. Iso alayhissalom bashorat bergan, Tavrot, Injilda sifatleri aytilgan oxirzamon Payg'ambari ekanliklarini aniqlab bilish edi. Karvon ahlini ziyofat qilishdan rohibning maqsadi ham shu edi. Yo'q esa, karvonlar bundan ilgari qancha qayta bu joydin o'tganlarida bu rohibdin hech qandoq iltifot ko'rmagan edilar. Shuning uchun yana kishi yuborib, qo'ymasdan chaqirtirib keltirdi. Kelgandin so'ngra:

— Bu bolaning otasi sizlardin qaysi biringlar?— deb so'radi. Anda Abu Tolib:

— Men otasi bo'larman, — deb javob berganida rohib aytdi:

— Hoy, andoq bo'lmasa kerak edi, bu bolaning ota-onasi o'lgan bo'lib, o'zi yetim bo'lishi kerak, — dedi. Abu Tolib aytdi:

— Bu so'zingiz to'g'ridur. Siz degandek, bolaning ota-onasi yosh chog'ida o'lib ketgandur. Men bo'lsam ular o'rnida tarbiyat qilib turgan amakisidurman.

Bu so'zlarni eshitgan rohibga bu bolaning oxirzamon Payg'ambarligi aniq bo'ldi. Tavrot va Injilda aytilgan sifatleri to'g'ri keldi, deb ko'ngli qanoatlandi. Ziyofat o'tgandin so'ngra rohib Abu Tolibni bir chetga chaqirib:

— Ey Abu Tolib, sizga xushxabar, bu o'g'lingiz voyasiga yetsa, Alloh taoloning habibi, anbiyolar sarvari— oxirzamon Payg'ambari bo'lur. Tavrot va Injilda sifatleri yozilmishdur. Uzun yillardin beri savmaada yotib, shuni kutmoqda edim. Alhamdulillah, bugun maqsadimga yetdim. Shom shahridagi yaxud olimlari ham o'z kitoblarida bu voqeani ko'rib, alar ham kutib turmoqdalar. Chunki Alloh taolo tarafidin Payg'ambarlarga berilgan barcha kitoblarda bu Payg'ambarning sifatleri bayon qilingandur. Shu jihatdan yahud, nasoro olimlari bu ishdin xabardordurlar.

Endi bundoq ulug' darajali payg'ambarlar alardin bo'lmay, arab naslidin chiqqanligi uchun, hasadlari qo'zg'olib, ko'ngillarida qattiq adovat saqlamoqdadurlar. Endi maning sizga do'stlik so'zim shuki, Shom shahriga kirmasdin, bolani olib, siz bu joydin qayting. Mabodo unga dushmanlar qasd qilib, ziyon zahmatlar yetkuzmasun, — dedi.

Abu Tolib ham bu rohib so'zini anglab, Shomi sharif ichiga kirmay, karvon tushgan joyda ishlarini bitirib qaytdi. Endi ul joydin karvon yurib, sihat-salomat Makkaga yetdilar. Shundoq qilib, oradin oy, yillar o'tib, Payg'ambarimizning yoshlari yigirmadan oshdi. Payg'ambarimiz bolalik vaqtidan boshlab odoblik, ko'rkam axloqlik, chin so'zlik,

yumshoq ko'ngillik, saxovatqo'llik, go'zal qilig'lik, ulug' himmatlik edilar. Katta-kichik, yaxshi-yomon, do'st-dushman barchaga qilgan ishlari yoqimlik edi. O'yin-kulgudin, botil ishlardin ko'ngillari nafrat qilur edi. Ul zamondagi arab xalqining tutgan butparastlik dinlaridin va har xil buzuq axloqlaridin bek jirkanur edilar. Bularning tutgan dinlari botil dindur, albatta, xato yo'l bo'lg'ay, deb ishonur edilar.

Birovdin ko'rmasdin, hech kimsadin o'rganmasdin Ibrohim Xalilullohning haq dinlarini tutgan edilar. Xudo tarafidin ko'ngillariga shundoq ilhom bo'lgan edi.

Avvalda arab xalqining tutgan dinlari Ibrohim alayhissalom kelturgan Islom dini bo'lsa ham, bu o'rtada uzun zamonlar o'tishi bilan ul yo'ldan adashib, bularda butparastlik ko'p rivoj topgan edi. Ichlarida Quraysh qabilasidan Varaqa ibn Navfal degan bir olim kishi bo'lib, butun arablar ichida Ibrohim alayhissalomdin qolgan haq dinni tutgan yolg'izgina shu kishi edi. Bu kishi ersa, hazrati Xadicha onamizning amakilaridur. Injil kitoblaridin o'qib ko'rib, u kishi:

— Oxirzamon Payg'ambari chiqar chog'i yaqinlashdi. Shu kunlarda tug'ilib, soyasi yer ustiga tushdi. Ul arab nasli, Quraysh urug'idin bo'lib, butun xalqni haq dinga da'vat qilur. Uning so'ziga arablar inkor qilib, qarshi chiqqaylar. O'z qabilasidin unga ko'p jabru jafolar yetgay, oxirida uni o'z shahri Makkadin qochishga majbur qilgaylar. Koshki men u zamonda tirik bo'lsam edim. Afsuski, u zamonnini ko'rishga umr oz qoldi, — deb har qachon shundoq so'zlar bilan hasrat qilur edilar. Varaqaning shundoq so'zlarini eshitib yurgan onamiz Xadicha:

«Agar bu ulug' davlat arablar ichida birovga nasib bo'lsa, albatta, Muhammaddan boshqaga bo'lmasa kerak. Chunki unda har bir yaxshilikning belgilari bordur. O'shandoq zotning xizmatiga loyiq bo'lsam, nikohlariga kirsam, men uchun qandoq ulug' baxt-davlat bo'lur edi», deb hamisha orzu qilar edi.

XADICHA SAVDOGARCHILIGIGA VAKIL BO'LIB SHOM SAFARIGA CHIQQANLARI

Hazrati Xadicha arab xotunlari ichida ortiq aqllik, ziyrak, chechanliklari ziyoda bo'lganlikdan, o'z fahm-farosatlari bilan Payg'ambarimiz boshlarida shundoq bir ulug' davlat borligini burundanoq sezib yurar edi. Shuning uchun turlik bahonalar bilan yaqinlashib, shul zotning nikohiga kirish yo'lini izlar edi. O'zlari bo'lsa, Quraysh qabilasi ichida hasab-nasablik, husni jamolda chiroylik, urug'-aymoqlari oldida obro'lik, boy xotun bo'lib, burungi eri o'lib, tul o'lturgan edi. Quraysh qabilasi sayyidlaridan bir qancha sovchi kelib, so'rovchilar bo'lsa ham, alardin hech birovini qabul qilmagan edi.

Makka shahrining atoqlik boylari qatorida qishda Yaman viloyatiga, yozda Shom shahriga savdo tijoratlari yil sayin yurib turmoqda edi. Bir kuni hazrati Xadicha payg'ambarimizga kishi yuborib, aytdikim:

— Muhammad bo'lsa, manim oldimda ko'p hurmatlik yigitdur, men uni bek ishonimlik kishi deb bilurman, tijorat uchun Shom shahriga yubormoqchi bo'lib, bir qancha mol tayyorladim. Agar xohlar ekan, bu tijorat ishiga boshchi bo'lib, borib kelsin. Foydasiga teng sherik bo'lurmiz, keyinchalik mendin ko'p yaxshiliklar ko'rgay, — dedi.

Payg'ambarimiz bu so'zni hazrati Xadichadan eshitgan so'ngida, amakilari Abu Tolib qoshiga kelib, andin maslahat so'radilar. Abu Tolib ham bu safardagi tijoratdin ko'p foyda chiqishini chog'lab, borishlariga maslahat berdi. Hazrati Xadicha bu so'zni angladi ersa, ko'p xursand bo'lib, Maysara degan qulini yo'lda xizmat qilish uchun hamroh qilib qo'shdi va ham Payg'ambarimiz haqida nima sirlar ko'rsa, yo'llarda qandoq voqealar o'tsa, payqab yurishiga buyurdi.

Shuning bilan Payg'ambarimiz Xadichaning mollarini olib, Shom karvonlari bilan yo'lga chiqdilar. Bu safarda Abu Bakr Siddiq ham birga edi. Payg'ambarimiz bilan oralarida

yoshliklaridin tortib do'stlik aloqalari bor edi. Ikkovlari bir tuyaga mingashdilar. Tuyaga minishlari bilan yana bir parcha oq bulut tepalarida soya tashlab turdi. Safar tamom bo'lguncha kun issig'ida ustilaridin shu bulut sira ajramadi. Abu Bakr Siddiq va Maysara bu sirni ochiq ko'rdilar. Karvonlar manzildan-manzilga ko'chib, bir necha kun yurishib, Shom viloyatiga keldilar.

Payg'ambarimiz o'n ikki yoshlarida amakilari Abu Tolib bilan kelgan safarlarida ko'rishgan Buhayro rohibning savmaasiga karvon yaqinlashdi. Ul rohib bir necha yillar ilgari o'lib ketib, o'rniga Nasturo degan rohib kelib o'ltirgan edi. Bu ham Tavrot, Injil kitoblarida Payg'ambarimiz sifatlarini ko'rib, oxirzamon Payg'ambarining chiqar vaqti yovuqlashdi, Shom safariga chiqib, shu yo'ldin o'tguvchidur, aning jamolini ko'rarmammu degan umid bilan savmaa uzasidin (tomi) ko'z tutib, Madina tarafiga boqib turar edi. Bir kuni shul tarafdin karvon qorasi ko'rindi, alar ichida ustiga bir parcha bulut soya solib turgan Payg'ambarimizga ko'zi tushdi. Karvon ahli savmaa oldiga kelib tushdilar. Payg'ambarimiz ersa, savmaa yaqinidagi bir tup daraxt soyasida o'ltirdilar, rohib kelib, Payg'ambarimizga uzundan-uzun tikilib, qarab turdi.

— Bu kishi kim bo'lur? — deb Maysara quldin so'radi.

Undan javobini anglab, kitobda ko'rgan sifatlariga to'g'ri topdi. So'ngra Maysarani bir chetga tortib, unga Payg'ambarimiz to'g'rilarda ko'p sirlarni aytdi. Va ham Shom shahriga kirmasga maslahat berdi. «U joyda yahudiylardindushmanlar kutib turmoqdadir, ulardind ziyon-zahmat yetmasun», dedi. Bu to'g'rida Payg'ambarimizning o'zlari bilan ham biroz so'zlashdi. Mana shu rohib so'zi sabab bo'lib, payg'ambarimiz Shom shahriga kirmasdin, shu joyda mollarni ko'p yaxshi bahoda sotib qaytdilar. Endi «So'zdan so'z chiqar» degandek, bu kitob yozguvchi Alixonto'ra, Shokirxonto'ra otamiz marhum bilan o'n to'rt yoshimda, tarix hijrat 1319 (1902) yili haj safariga chiqdik. Toshkentdin poyezdga tushib, Kaspiy dengiz osha Kavkaziya orqalik, Botum bilan Qora dengizga kirib, Istambulga yetdik, ul zamonda sulton Abdulhamidxon hazratlari xalifa edilar. Bu joydin O'rta dengiz orqali yurib, Bayrut shahriga keldik. Undan poyezd bilan to'qqiz soatda Shomi sharifga keldik. Eng avval Bani Umayya jome'ida hazrati Yahyo Payg'ambar qabrini ziyorat qildik, boshqa ko'p ziyorat joylar bor ekan, alardind bo'shagan so'ngida shahardind anchagina chetroq joyda bir qishloqqa bordik. U qishloqni «Qadamun Nabiy» deb atar ekanlar. Unda bir masjidga kirdik, masjid ichida tokcha ustida bir dona katta tosh turibdur. Mana shu tosh uzasida bosilgan bir inson izini ko'rib, ziyorat qildik. Bizni boshlab kelgan odam aytdikim, Payg'ambarimiz yigitlik vaqtlarida hazrati Xadichaning mollari bilan tijorat uchun Shom shahriga kelgan ekanlar, shu joyda ko'rishgan Nasturo rohib so'zi bilan shahar ichiga kirmasdin, shu yerdind qaytgan ekanlar. Mana shu tosh ustiga, mo'jiza bo'lib, oyoqlarind ziri tushgan, dedi. Ul zamonda butun Shom viloyati, arablar mamlakati sulton Abdulhamidxon xalifaga qarar edi. Hozirgi tarix 1371 yil bo'lib, shul orada 52 yil o'tibdur. «Inson umri o'tar, yozgan so'zlari qolar», degani shul ekan. Endi, boshqalar o'tgandek biz ham dunyodind o'tib ketsak, bizning avlod-nasllarimizga bu yozgan so'zlarimiz yodgor bo'lsin. Buni o'qigan chog'larida biz g'aribni ko'ngullariga kelturib, bir kalima Qur'on bilan duoda yod qilib, ruhimni shod qilgaylar. Alloh taolo alarning ham ikki dunyoligini obod qilg'ay, omin! Yana o'z so'zimizga kelaylik. Quraysh karvoni Shom tuprog'idind chiqib, manzildind manzilga ko'chib, salomat Makka shahriga yetdilar. Makka xalqi karvon xabarini anglashib, to'sib chiqishdi. Onamiz hazrati Xadicha ham shul chog'da bir necha xotunlar bilan tom uzasiga chiqib, qarab turgan edilar. Yiroqdin kelayotgan karvon ichida Payg'ambarimizga ko'zi tushdi. Bosh ustilarida bulutdek soya solib turgan bir juft qush ko'rindi. Haqiqatda esa u ko'ringan qushlar ikki farishta edi. Angachalik Maysara qul ham yetib keldi, sihat-salomatlikni bildirgandan keyin bu uzun yo'lda payg'ambarimizdan

ko'rgan barcha sirlarni, bir necha karomat mo'jizalarni onamiz Xadichaga birin-birin bayon qilib berdi. Buni eshitgan so'ngida Payg'ambarimizga ixlos-muhabbatlari, zavq-shavqlari ilgarigidan yana ortiqroq bo'ldi. Va ham Payg'ambarimizning bu safardagi tijoratlarida boshqa kishilardan ortiqroq foyda chiqqanidan hazrati Xadicha ko'p suyundilar.

XADICHAGA NIKOHLANISHLARI

Mana shu kundan boshlab, Payg'ambarimizga qiyomat juft bo'lib, nikohlariga kirish chorasini qildi. Xotunlar tarafidin er izlab, sovchi qo'yish rasmi odatdin tashqari ish bo'lsa ham onamiz Xadicha Nafisa degan xotunni Payg'ambarimizga yuborib, asli maqsadini bildirdi. Payg'ambarimiz ersa, eshitganlaridin keyin amakilari Abu Tolibdin bu haqda maslahat so'radilar. Bu ishga Abu Tolib ko'p ajablandi. Chunki hasab-nasabda Quraysh xotunlari ichida birinchi o'rin olgan Xadichaning o'zi xaridor bo'lishi, u zamon arab odatlariga sig'maydigan taajjub ish edi. Shuning uchun Abu Tolib:

— Xadichaning bu talabini sizga kelgan bir davlat deb hisoblaymiz, albatta, buni qabul qilishimiz kerak, — deb mamnunlik ila roziliklarini bildirdi.

So'ngra Xadichaga qabul javobini berdilar.

O'shal vaqtning rasm-odatlarini bo'yicha nikoh majlislari tuzildi. Har ikki tomondin ta'sirlik xutbalar o'qishib, nikoh bog'ladilar. Bu birinchi ko'rgan nikohlari edi. Bunda yigirma tuya mahr solganlari rivoyat qilinur. Mana shu chog'da Payg'ambarimiz 25 yoshda bo'lib, onamiz Xadicha 40 yosh chamasi edilar. Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamning dunyoda ko'z ochib ko'rgan vafodor yorlari, har ikki jahonlik muborak juftlari onamiz hazrati Xadichadurlar.

Payg'ambarimizning to'rt o'g'il, to'rt qiz farzandlari bor edi. O'g'illari Qosim, Tohir, Tayyib, Ibrohimdur, qizlari esa Ruqiya, Zaynab, Ummu Gulsum, Fotimadur. Mana bulardin yolg'iz Ibrohim — cho'rilarini Moriyadan tug'ilgan edi. Qolgan hammalari onamiz Xadichadin tug'ilgandur. O'g'illarining eng kattasi Qosim bo'lib, kichiklari Ibrohimdur. Qizlarining eng cho'ngi Ruqiya, kichiklari hazrati Fotimadur.

Onamiz Xadicha butun mol-dunyolarini, balki tamom umrlarini Payg'ambarimizning rizoliklarida sarf qildilar. Payg'ambarimizga ko'p g'amxo'r, ziyoda mehribon edilar. Umrlari boricha, eng oxirgi damlarigacha Payg'ambarimizning g'am-qayg'ularini birga tortishdi. Hasrat kunlarida munglik boshlariga pana bo'lib, dardlik dillariga davo edi. Butun dunyo xalqini Islom diniga da'vat qilish amri Alloh taolo tarafidin

Payg'ambarimizga keldi. Shu xizmatni bajarish ustida mushrik va munofiqlardan turlik jabru jafo ko'rdilar. Tashqaridin har nechuk aziyatlar ko'rib, uyga kirganlarida ochilgan guldek chiroylari, shirin-shakardek so'zlari bilan Payg'ambarimizni yupantirib, g'amlik ko'ngullarini ko'tarur edilar. Birorta so'zlarini qaytarmasdin, har qandoq ishlarini og'ir olmasdin, barcha mol-dunyolarini, balki borliq narsalarini ayammasdan, Payg'ambarimiz yo'lida fido qildilar. Shuning uchun Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam:

— Ey bor Xudoyo, Xadichadin men rozidurman, sen ham rozi bo'lg'aysan, — deb haqlariga duo qildilar.

Onamiz Xadicha vafot etgan yilni qayg'u-hasrat yili deb atagan edilar. Shuning uchun Alloh taolo o'z habibiga juft qilib, yor-vafodorlikka uni loyiq ko'rdi. Vafotlaridin keyin ham Payg'ambarimiz har vaqtda Xadicha onamizning sifatlarini qilib, aning yaxshiliklarini aytib o'ltirur edilar.

Bir kuni Payg'ambarimiz, onamiz Oisha uyida o'tirgan chog'larida Xadicha onamiz ustilarida so'z bo'ldi. Payg'ambarimiz aning yaxshilik sifatlarini aytib maqtadilar. Bunga onamiz Oishaning rashklari qo'zg'alib:

— Ul qari, qizil og'iz xotunni muncha maqtadingiz, — dedi.

Anda Payg'ambarimiz aytdilar:

— Hoy unday demagin, ul esa borliq boyligini mening yo'limda qurbon qildi. Qayg'u-hasratlarimni teng tortishdi. Menga tikilgan ofat-balolarga o'zini qalqon qildi. Men undin, u mendin rozilik bilan dunyodin ketdi, — deb muborak ko'zlariga yosh oldilar.

Endi Xudo roziligi uchun erlariga bo'yinsungan, dunyo turmushidagi g'am-qayg'usini birga tortishgan mo'mina, soliha xotunlar umidi shuldirkim, qiyomat kunida onamiz Xadichai kubroning shafotlarini topgaylar, inshaalloh.

Payg'ambarimiz Makka shahridan Madinaga hijrat qilib kelganlaridan keyin bir kuni uylariga bir kampir xotun kirib keldi, uni ko'rib, ko'p hurmat qildilar, so'ngra o'ltirgan odamlarga qarab, aytdilarkim:

— Bu xotun ersa, Xadichaning do'stidur, uning tirikligida ko'p kelur edi, har kishi o'z do'stining do'stlarini ko'rsa, albatta, uni hurmat qilish lozimdur,— deb bu xotunga ko'rsatgan hurmatlari uchun sabab bayon qildilar.

Shuning uchun bu haqda Payg'ambarimiz aytdilarkim:

— Har bir musulmon farzandlariga ota-onalarining tirikliklarida va ham o'lgan so'ngida, alarning yoru do'stlarini hurmat qilish vojibdur.

Ota-onalarning qadrdon birodarlarini siylash, ham ularni hurmatlash, haqiqatda esa o'z ota-onasini hurmat qilgandin bo'lur. Ota-onalarning hurmatlari va alarning xizmatlari bolalar ustiga yuklangan ulug' farzdur, alarga ozor berish, ko'ngillarini ranjitish Islom shariatida eng ulug' gunohlardan bo'lib hisoblanur. Chunki Payg'ambarimiz aytdilar:

— Bu dunyoda qilgan hamma gunohlarning jazosi oxiratga qolishi mumkindur, magar ikki ulug' gunoh bordirki, uning jazosini bu dunyoda ham oxiratda ham, ko'rgay. Birinchisi ota-onaga ozor berib, oq bo'lish, ikkinchisi nohaqdan yolg'on qasam ichishdur. Ota bezori oqpadarlar xalq oldida ham, Xudo oldida ham marduddurlar. Ota-onalariga qilgan adabsizliklarining qasoslarini, albatta, o'z bolalaridin ko'rgaylar. Bunga Qur'oni karim, hadisi sharif mazmunlari ochiq shohiddur. Odob, hurmat saqlashlik shariati islomiyada yolg'izgina ota-onalar haqida emas, balki har bir ulug' yoshlik qari kishilarni siylashga, yoshi kichiklarga rahm qilib, mehribonlik ko'rsatishga buyrilmishdur. Shuning uchun Payg'ambarimiz:

«Bizlarning qarilarimizni hurmat qilmaganlar, yoshlarimizga mehribonlik ko'rsatmaganlar — andog' odamlar bizlardin emasdur», dedilar.

Yana o'z so'zimizga kelaylik, shundoq qilib, Payg'ambarimiz Xadicha onamiz bilan yaqin o'ttiz yil eng ko'ngillik holda umr o'tkazdilar. Hayotliklarida ustilariga xotun olish ixtiyorini qilmadilar. Lekin Payg'ambarimizning muborak yoshlari qancha ulg'aygan sari, botiniy ahvollari, ruhoniy sifatlari shunchalik quvvat topib, kuchaymoqda edi. Mundog' bo'lishlari esa, oldingi kunlarida Payg'ambarlik ulug' vazifasini bajarish uchun tayyorlanish edi. Xilvatda yolg'iz o'tirib, toat-ibodat qilishni, hamisha Xudo yodi bilan mashg'ul bo'lishni ko'p suyar edilar. Shu sababdin besh-o'n kunga yetarlik oziq-ovqat tayyorlatib, shu tugagunchalik Makka shahridin chetroqda bo'lgan Hiro tog'idagi bir g'orga kirib, Xudoga ibodat qilur edilar. Har chiqqanlarida necha kun hilvat o'tkazib, tog'larda yolg'iz qolgan kunlari ko'p bo'lur edi. Borish-kelish yo'llarida bir necha mo'jizalarni ko'rar edilar. Shundoqki, g'oyibdin ma'nolik tovushlar eshitilar edi. YOg'ochu toshlardin: «Assalomu alaykum, yo Rasulalloh» degan salom ovozlari chiqar edi. Ayniqsa, bunday mo'jizalar vahiy kelishga olti oy miqdori qolganda ko'paya boshladi. O'zlari Payg'ambar bo'lishlarini shu choqqacha bilmas edilar. Odatdan tashqari voqealar ko'rilganida, jin-shaytonlar tarafidin bundog' ishlar bo'lur degan gumon ham ko'ngillariga kelur edi.

Chunki o'shal zamondagi arablar ichida jinlar bilan aloqa bog'lashgan, g'oyibdin

so'zlaydirgan bir xil odamlar bor edikim, alarni kohin deb aytur edilar. Bundog' odamlar arablar orasida oliy darajalik olim hisoblanib, o'zaro yechilmagan mushkul ishlar kohinlar hukmiga tashlanur edi. Har qandog' ishlar ustida chiqarilgan hukm albatta qabul qilinishi kerakdur, degan e'tiqodda edilar. Kohinlar oldida g'oyib ishlari yashirin emas, degan arablarning ishonchlari bor edi. Bularning eng cho'nglari Shom arablaridin ikki kishi bo'lib, birining oti Shaq, ikkinchisining nomi Sittih edi. Sittihning tan yaratilishi ham o'zgacha bo'lib, bosh suyagidin boshqa hech ustihoni yo'q edi. Yig'in majlislariga olib bormoqchi bo'lsalar, kiygiz yo'rgagandek ani yo'rgashib, xurjunga solib olib borishar edilar. Bosh suyagidin boshqa jasaki yumshoq, shundoqqina go'sht edi.

Mana shu ikki kohin qirq yil ilgari Payg'ambarimizning kelishlaridin, Islom dinining rivoj topishidin xabar bergan edilar.

No'shiravon Odil shul zamonda Eron podshosi edi. Uning ko'rgan qo'rqinchlik tushiga e'tibor berib, Eron davlati yo'q bo'lishini bildirishgan edilar. Bu ikki kohinning so'zlari qirq yildan so'ngra shular degandek kelganligi hamma tarixiy kitoblarda yozilgan mashhur so'zdir. Va ham Qur'oni karimning mazmunicha o'tgan payg'ambarlar har qaysilari o'z ummatlariga Payg'ambarimiz kelishlaridin bashorat berganlari ma'lumdir. Zamoni saodatga erishganlari bo'lsa, alarni to'xtovsiz iymon keltirishga vasiyat qilgan edilar. Tavrot, Injilda va boshqa payg'ambarlar kitoblarida ham shundoq bashoratlari berilgan edi.

BAYTULLOHNING DASTLABKI BINOSI

Bu oralik vahiy kelishidan besh yil burun Quraysh arablari Baytullohni buzib, qayta yasamoqchi bo'ldilar. Buning sababi esa, Makka shahrida bir qattiq yomg'ir yog'ib, Baytullohni sel bosib, tomlari yiqilishga boshladi. Mana shuning uchun Quraysh qabilasi Baytullohni boshqatdan yasashga qaror qildilar. Bunga sarf bo'ladigan chiqimga eng halol mollardin berishga qattiq shart qildilar. O'g'irlikdan, poradan, qimordan, fohishalikdan va boshqa har turlik buzuqchiliklardan topgan mollarni qo'shmasga va'da qildilar.

Baytulloh yer yuzida paydo bo'lgandan boshlab, o'n marta buzib, yasalganligi haqida rivoyat bordur. Eng avval, birinchi navbatda farishtalar tarafidan bino qilingan edi. Inson nasli dunyoga kelmasdan ilgari, yer ustiga jinlardan Bani Jon toifasi ega edilar. Iblis-shayton shu toifa naslidan edi. Bu toifa yer ustida ko'p fitna-fasod ishlarini qildilar. Alloh taolo qahr qilib, ularni halok qilishni to'rtinchi qavat osmon farishtalariga buyurdi. Bular tushib Bani Jon toifasini halok qildilar, so'ngra o'z makonlariga chiqishlariga ruxsat bo'lmay, birmuncha vaqt yer ustida qoldilar. Hadisda aytilishicha, to'rtinchi qat osmonda qizil yoqutdan yasalgan Baytul Ma'mur degan bir bino bo'lgan. Yer ustida hojilar Baytullohni tavof qilganlaridek, farishtalar osmonda bu uyni ziyorat qilishur edilar. Shuning uchun yerda turishga buyurilgan farishtalar yer ustida ham shundoq bir ulug' muborak bino bo'lishini talab qildilar, Alloh taolo duolarini ijobat qildi. Baytul Ma'murning to'ppa-to'g'ri tagiga bir uy binosini yasab, shuni tavof qilishga buyurdi. Mana shu Baytullohning birinchi binosi edi. Ikkinchisi, Xudo bilur, bu voqeadin qancha zamon o'tgandin so'ngra otimiz hazrati Odam Safiyyulloh vujudga keldilar. Jannatdin tushgan joylari — Hindistondin qirq qayta piyoda yurib, haj qilganlari hadis kitoblarida rivoyat qilinur. Yig'i zori bilan qilgan tavbalari ikki yuz yildan so'ngra qabul bo'lib, onamiz Momo Havvo ila Arafotda ko'rishganlari, Muzdalifada topishganlari tarix kitoblarida mashhurdir. Ana shu tarixda farishtalardin keyin otimiz Odam Safiyyulloh Baytullohni ikkinchi yasaganlari haqida rivoyat bordur. Jannatdin tushishlari va vafot bo'lishlari Hindiston tuprog'idin Sarandip tog'ida bo'lganligi mashhur bo'lsa ham, Mino tog'i tagida Masjidi

Hayfda madfundurlar (ko'milgan), degan so'zni kitoblarda ko'rdim. Uchinchi binosi Odam alayhissalom o'g'illari tomonidan qilingan demishlardur. To'rtinchisi, Ibrohim Xalilulloh tarafidin qilinganligi Qur'oni karimda ochiq aytilmishdur. Beshinchi va oltinchisi, Amoliqa, Jurhum arablari tarafidin yasalganligini tarix ahllari rivoyat qilurlar.

Ettinchisi, Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning beshinchi bobolari Qusay ibn Kilob tomonidan yasalmishdur.

Sakkizinchisini Quraysh qabilasi yasadilar. Shu kunlarda Payg'ambarimizning muborak yoshlari o'ttiz beshda bo'lib, to'liq yigitlik vaqtlari edi. Quraysh xalqi Baytullohning binosi uchun o'z va'dalari bo'yicha eng halol kasblardin bir muncha mol chiqardilar. Bu yo'lda yig'ilgan mol-dunyolari va ham kuchlari bilan ishga kirishdilar. Payg'ambarimiz ham amakilari, urug'-tuqqanlari ila tosh tashishib, har turlik xizmatda bo'ldilar. Ibrohim alayhissalom yasagan vaqtlaridagi asosiy ul (poydevor) ustidin tosh qo'yishib chiqdilar. Shundog' bo'lib, Baytulloh tomlari ko'krak bo'yi ko'tarildi.

HAJARUL ASVAD TARIXI

Endi Hajarul asvad toshini o'z joyiga o'rnatib qo'yish vaqti edi. Shu o'rinda Hajarul asvad toshi tarixidin bir oz ma'lumot berib o'taylik: «Ma'lum bo'lgayki, hadislarning mazmunlaricha, Baytulloh yer ustiga bino bo'lgan chog'ida Alloh taoloning amri ila «Hajarul as'ad» toshi jannatdin keltirildi. Baytullohni tavof qilishda boshlash o'rni belgilanishi uchun uni kun chiqish do'qmishiga qo'yidilar. Jannatdin yangi chiqqan chog'ida o'z nuri bilan butun Haram xududini, ya'ni Makka shahri atrofini yoritur edi. Fatarot zamonlarida, ya'ni ikki payg'ambar orasi uzoqlashib, din yo'lidin xalqlar adashgan davrlarida ham Baytullohni tavof qilish odatlari tashlanmagan edi. Lekin ularga Baytullohning xurmat-odoblarini o'rgatishga din olimlari qolmaganlikdan, arablar o'z so'yganlaricha tavof qilur edilar. G'usl, tahorat, satri-avrat kabi diniy ishlarni xalq unutgan edi. Shu sifatlik arab mushriklari, tahoratsiz er-xotunlar tavof qilganlarida, odatlari bo'yicha Hajarul as'adga yuz-ko'z, qo'llarini surtishur edi. Mana shu beodobchilik kasofatiga qolib ketib, bu muborak toshdin ilgarigi yorug'lik nuri ko'tarildi. Avvalda sham chirog'idek oq nurlik bo'lishi bilan «Hajarul as'ad», ya'ni «muborak tosh» deb atalgan bo'lsa ham, u insonlar kasofatidin nurlari so'nib, «Hajarul asvad», ya'ni «qora tosh» nomini ko'tardi. Endi bu muborak tosh shu sifat bilan zohiriy husnidin ajragan bo'lsa ham, ma'naviy fayzi-ilohiysi abadiy o'zida boqiydur. Shuning uchun Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam aytdilar:

«Qiyomat kunida Alloh taolo Hajarul asvadni ko'rar ko'zlik, so'zlar tillik qilib, burungi husni-jamoliga qaytargay, ixlos ila uni ziyorat qiluvchilarning iymoniga Xudo oldida guvohlik bergay» dedilar. Almiysoq kunida hamma arvohlardin olingan ahdnoma Hajarul asvadda saqlanmishdur, degan rivoyat bordur. Yana onamiz Oishadin rivoyat ham bordur.

Payg'ambarimiz: «Ey mo'minlar, Hajarul asvadni ko'p ziyorat qilinglar, ani g'animat bilinglar, bir kun bo'lurki, odamlar Baytullohni kechalab tavof qilurlar, ertalab turganlarida Hajarul asvadni topa olmaslar. Chunki jannatdin chiqqan barcha narsalarni Alloh taolo qiyomat oldida yana jannatga qaytarur», dedilar.

Yana o'z so'zimizga kelaylik. Hajarul asvadni hazrati Ibrohim Xalilulloh qo'ygan joylariga o'rnatish kerak edi. Hajarul asvadni o'z joyiga o'rnatish uchun ko'tarishni talashib, Quraysh xalqi o'rtada janjal chiqardilar. Har urug' bu ishda o'zlarini boshqalardin haqliroq ko'rishar edi. Bu to'g'rida so'zlari bir joyga to'xtayolmasdin, kelisha olmay oxiri qilich, nayzalariga yugurishib, urushmoqchi bo'ldilar. Ish shu joyga yetganda, oqil

odamlardin o'rtaga yarashchilar tushdi. Undog' ulug' ish ustida Baytulloh oldida nohaq qon to'kishdin saqlanaylik, deb o'zlari insofga keldilar. Oqil orachilarning ko'rsatishlari ila Bani Shayba darvozasidin kim ilgari kirsar, shuning hukmiga hammamiz rozi bo'laylik, deb qaror chiqardilar.

Shul kuni Payg'ambarimiz kelmagan bo'lib, bu voqeadin xabarlarini yo'q edi. Shu orada u kishi darvozadin kirib keldilar. Buni ko'rgan Quraysh xalqi hammalari bir og'izdan ajab yaxshi ish bo'ldi, chin so'zlik, ishonchlik kishimiz Muhammad Amin keldi, buning hukmiga barchamiz rozimiz, deyishdilar. Payg'ambarimiz bu ishning tubiga tushungandin keyin yelkalaridagi ridolarini yerga yozib, Hajarul asvadni ridoga soldilar, o'n bir urug' Qurayshdin bir kishidin kelsin, Bani Hoshim urug'idin mana men bo'ldim, Hajarul asvadni hammamiz barobar ko'tarib, o'rniga qo'yaylik, deb o'n birlari barobar ko'tardilar. O'z joyiga yetkazganlarida Payg'ambarimiz qo'llari bilan o'rnashtirib qo'yidilar. Shuning bilan o'tga suv sepgandek fitna bosildi. Payg'ambarimizning bu qilgan tadbirlariga, mundoq aql topganlariga barchalari rozi bo'lishib, ofarin qilishdilar. Bu tadbirlari bilan qancha odamlarni nohaq qonlari to'kilishidin saqlandi. Shundoq bo'lib, bu voqea ham ziyonsiz o'tdi.

Endi Payg'ambarimizning yoshlari qirqaqa yaqinlashdi, vahiy kelishiga olti oy chamasi qolganda har turli yaxshi tushlarni ko'rar edilar. Qandoq tush ko'rsalar, hech o'zgarmay, shundoq kelur edi.

Endi bu joyda tushning haqiqati nima ekanligini o'quvchilarga tushuntirishni lozim topdim. Chunki tush ko'rishning ko'p chuqur haqiqati bordur. Agar buni yaxshi tushunib bilsa, bu bizga ko'rinib turgan tabiat olamining ustida yana bir haqiqat olamining borligini bildiradur. Buning bilan Xudoning borliq birligi, payg'ambarlar so'zlarining haq rostligiga yo'l ochiladur. Endi bilmak kerakkim, insonning haqiqiy ruhi (joni) fan olimlari, tabiat olimlarining deganlaridek qondin chiqqan bir quvvat emas, balki din olimlarining ulug' rahbarlari, payg'ambarlar aytganlaridek, tabiat usti — haqiqat olamidin Xudo amri bilan inson vujudiga vaqtlik qo'yilgan omonat bir gavhardur. Mana bu ruh qondin paydo bo'lgan ruh bilan bek qattiq aloqalik bo'lib, Xudo hikmati bilan shu parda ostiga yashiringanlikdin, insonlar ahli parda ostidagi asrorga yetisholmaydi. Chunki tabiat olamining ichidagi sirlarni tekshirishda fikr maydoni har qancha keng bo'lsa ham, ammo tabiat olamidan ustungi diniy masalalarda payg'ambarlarning rahbarligi ostidagina yo'l topilmasa, yolg'iz aql bilan haqiqatni topish imkondin tashqaridur. Shuning uchun bu haqda rahbarlik qilish uchun payg'ambarlarni yubordi. Mana, inson haqiqati shu gavhardur. Bu gavhar azaliy emas, abadiydir. Ya'ni, bu ruh ilgari yo'q edi, keyin yaratildi, demakdur. Endi u yo'qolmay mangu yashaydi. Har inson o'lgandin keyin, uning ruhi dunyodagi qilmishiga qarab, qilgan amaliga loyiq lab belgilangan joyda, yaxshi bo'lsa rohatda, yomon bo'lsa mehnatda (mashaqqatda) turadur. Payg'ambarimizning: «Inson qabri jannat bo'stonlaridin bir bo'ston yoki do'zax chuqurlaridin bir chuqurdur», degan so'zlarining asli haqiqati shuldur. Qiyomat kuni Alloh taolo insonlarni shu ruh bilan tirgizur. Qur'oni karimdagi: «Va yas'alunaka anir-ruhi, qulir ruhu min amri robbiy» oyatining ma'nosi: «Ey Muhammad, ruhning haqiqatini sendin so'raydilar, sen aytgin, ruh Allohning amridin paydo bo'lgandur». Mana shundin ham insonning shu ruhi muroddur. Bu ruhning esa arvoh olami ila aloqasi bordur. Arvoh olami deb, farishtalar olamini ayturlar. U ruhning asli vatani tabiat olami ustidagi farishtalar olamidur. Boshqa hayvonlardin insonlarning farqi shu ruh orqali bo'lur. Ilmiy taraqqiyotlar, ijodiy fikrlar hammasi shu ruh natijasidur. Endi insonning tush ko'rishi shuki, uxlagan chog'ida shu ruh tan xizmatidin bo'shanib, yuqorigi o'z olamiga sayr qilib chiqqay. Dunyoda bo'ladigan hodisalarning ma'lumoti tamomi ila ul joyda bordur. Inson ruhi shu dunyoda bo'ladurgan ba'zi voqealarni ul joyda ko'rgay.

Endi ruhning shu ko'rishini tush, deb aytilur. Ruh har qancha yorug', musaffo bo'lsa, ko'rgan tushlari shuncha yorug', to'g'ri chiqar. Misoli bir ko'zgudir kim, aksni to'g'ri ko'rsatish uchun uning sayqali safolik, dog'siz, yuzi silliq, tekis bo'lishi shartdir. Ko'rilgan tushlar rahmoniy va shaytoniy bo'lib, ikkiga ajraydi. Rahmoniy tushlarning haqiqatligida hech shak yo'qdur. Chunki Payg'ambarimiz aytdilar: «Mendin keyin vahiy kelishi to'xtatilib, ilmi g'oyib eshigi yopilur. Lekin taqvolik, pok kishilarning ko'rgan tushlari vahiy namunasi bo'lib, to'g'ri kelur». Ya'ni, rahmoniy tushlar esa g'oyibiy hodisalarga ishorat bo'lur, dedilar. Shuning uchun payg'ambarlar, avliyolar, taqvolik olimlar, solih, mo'min bandalarning ko'rgan tushlari albatta haqdur. Qur'oni karimda hazrati Yusuf alayhissalomning yoshligida ko'rgan tushlarining to'g'ri chiqishi bunga ochiq dalildur. Har odam o'z umri ichida bir necha to'g'ri tushlar ko'rish ma'lumdur. Bu haqiqatga hech kim inkor qilolmas. Demak, Payg'ambarimiz deganlaridek, vahiy uzilgandin so'ng, g'oyibni bilishga solih kishilar ko'rgan tushlardin boshqa yo'l yo'qdur.

Mana shu g'oyibdin xabar beruvchi ruh, Almiysoq kunida «Alastu birobbikum» savoliga «Qoluv balo» javobini bergan shu ruhdur. Alloh taolo almiysoqdagi ahdini shu ruhlardin olmishdur. Oxirat kunida hisob-kitob berguvchi, jannat-do'zaxga tushguvchi ana shu ruhlik insondur. Hammaga ma'lumki, kishi tushida har xil narsalarni, o'lik-tiriklarni ko'rgay. O'ylab ko'raylik, ko'rguvchi, ko'rinuvchi kimdur? Albatta, shular arvohlardur. Buni ham bilmak kerakkim, din ishlarida, tabiat usti masalalarida yolg'izgina aqlga suyanmay, bu haqda payg'ambarlar so'zlarini asos qilib tutishlik har bir musulmon odamga farzdur. Bu olamning sirlariga hech kim payg'ambarlardek voqif emasdur. Inson olamining bilgan narsalari bilmaganlari oldida ulug' dengizdin bir tomchi suv misolidadur. Mo'minlarga qandog' ulug' ne'matdur kim, din ishlarida, g'oyibiy imonlarida alarning yo'l boshchilari bir yuz yigirma to'rt ming payg'ambarlardur. Bu so'zlarni yozguvchi faqir, boshdin o'tgan mehnat kunlarimda bir necha ko'rgan tushlarim bordur kim, ul tushlarim esa eng og'ir ahvolda yotgan kunlarimda Alloh taolo tarafidin bu osiy quliga qilgan iltifotlaridin ulug' bir ishorat edi. Yana asli so'zimizga kelaylik. Payg'ambarimizga bu tush ko'rish davri olti oy miqdori davom etdi.

PAYG'AMBARLIK. VAHIYNING KELISHI

Bu orada Payg'ambarimiz yoshlari qirqqa yetdi. Endi Alloh taolo tarafidin vahiy kelar vaqti bo'ldi. Farishtalar ulug'i Jabroil alayhissalomga Xudo tarafidin shundog' farmon bo'ldikim. «Habibim Muhammadga aytgil, uni butun yer usti tamom insu jinlariga Payg'ambar qildim. Mening dargohimda maqbul bo'lgan Islom dinini bandalarimga o'rgatsin, bandalarimga meni tanitib, amru farmonlarimni ularga yetkazsin. Barcha xalqni men aytgan haq yo'lga boshlasin» dedi. Jabroil alayhissalomga bu farmon yetishi bilan Iqro surasidan boshidagi besh oyatni keltirdilar. Qur'oni karimdan yer ustiga tushgan birinchi sura shu edi.

Vahiy boshlanishi Ramazon oyining yettinchi kuniga to'g'ri keldi. Shu kunlarda Payg'ambarimiz Hiro tog'ining g'orida ibodatga mashg'ul edilar. Jabroil alayhissalom odam suratida ko'rinib, Payg'ambarimizga qarab. «O'qi» dedilar. Payg'ambarimiz sallalohu alayhi vasallam. «Men o'qishni bilmayman», deganlarida, Payg'ambarimizni quchoqlab oldilar. Siqib turib, yana: «O'qi» dedilar. Shundoq qilib, uch qayta siqib turib, qo'yvorib. «O'qi» degan so'zni takror qildilar. Uchinchi gal Payg'ambarimizni ezib, emganish darajada qattiqroq siqib, qo'yib yuborgandin keyin, Iqro surasining boshidin besh oyatni o'rgatdilar. So'ngra Jabroil alayhissalom Payg'ambarimiz bilan tog'din tushib, bir tekis joyga kelganlarida oyoqlarini yerga urdilar ersa, darhol shu joydin bir buloq paydo bo'ldi. Tahorat olishni o'rgatgan so'nggida, namoz o'qish tartiblarini ta'lim

berib, Jabroil alayhissalom ko'zdin g'oyib bo'ldilar.

Mana, birinchi vahiy kelish tartibi shu erdi. Shu kundan tortib, payg'ambarlik davri boshlanib, bu ulug' vazifa Payg'ambarimiz ustilariga yuklandi. Shu kundan boshlab, Alloh taolodin kelgan amrlarni bandalariga yetkazib, alarga Islom dinini o'rgatishga kirishdilar. Yani bilmak kerakkim, Alloh taolo o'z qudrati bilan barcha olamni yo'qdin bor qildi. Olam ichida aql yetgan, yetmagan, ko'z ko'rgan, ko'rmagan turlik maxluqlarni xalq etdi. Alar ichida eng ortiq a'losi odam farzandini yaratdi va ani yer ustiga ega qilib, unga xalifalik darajasini berdi. Va ham o'zini tanitish uchun unga aql, fikr berib, haq dinni tutib, to'g'ri yo'ldin yurishga buyurdi. Bularga rahbarlik qilish uchun bir yuz yigirma to'rt ming payg'ambarlarni yubordi. Alarning haqlari uchun xalq oldida hujjat-dalil bo'lsin deb alarga mo'jizalar berdi. Yana bizlarning ko'zimizga ko'rinmaydigan, boshqa sezish quvvatlarimiz bilan ham bilmaydigan bir turlik maxluqlarni yaratdikim, alarni farishtalar, jinlar, deb aytilur. Yer ustini insonlar, hayvonlarga joy qilgandek, osmonlarni farishtalarga, havoni, yer, suvlarni jin toifalariga makon qildi.

Mana shu farishtalar ichinda to'rt nafar ulug' farishtalarga payg'ambarlik darajasini berdi. Bular— Jabroil, Mikoil, Isrofil, Azroyil alayhimussalomdurlar. Tamom maxluqlarga rizq tayyorlash ishi Mikoil alayhissalom vazifasidir. Har bir bandaning yeydirgan bir parcha noni oltmish qo'ldan o'tib, uning og'ziga tushadur. Birinchisi Mikoil, eng oxirgisi nonvoy, degan so'zning haqiqati shuldur. Banda o'z rizqini topishda harna o'zi bilgan, qo'ldan kelgan hamma sabablarini qoldirmay qilishga Alloh taolo tarafidin buyrilmishdur. Ammo bandaning ko'zi ko'rolmaydigan, qo'ldan uni ishlash kelmaydigan bir qancha sabablar bordurkim, ularni ishlab vujudga chiqarish farishtalarga topshirilmishdur. Bunday bo'lgach, banda qo'ldan kelganicha har ishning sababini qoldirmasdin qilib, qolgani bo'lsa uni Xudoga topshirmoq lozimdur, Islom shariatining ko'rsatgan haqiqiy yo'li shuldur.

Isrofil alayhissalom bo'lsa qiyomat-qoyim bo'lishida sur chalish va ruhlarni tarbiyat qilish, Azroyil alayhissalom jon olish, Jabroil alayhissalom Alloh amrlarini payg'ambarlarga yetkurib, vahiy keltirish, osmoniy ofatlarni yer yuzida ijro qilish vazifalaridadurlar. Bundan boshqa ham turli xizmatlarda Xudo amriga qarashlikdur. Endi har bir musulmon odamga Xudoga va uning payg'ambarlariga, qiyomat kunining bo'lishiga, o'lgandan keyin qaytadan tirilmaklikka ishonmoq qandoq farz bo'lsa, farishtalarning borlig'iga shundoq ishonmoq farzdur. Chunki barcha payg'ambarlarga Xudo tarafidin keladigan vahiyalar shu farishtalar ulug'i Jabroil alayhissalom orqalik kelur. Lekin u farishtalarni payg'ambarlardin o'zga insonlar ko'rishlari mumkin emasdur. Ammo payg'ambarlar vahiy kelganda insoniy sifatlaridin farishtalik sifatlariga o'tib turib, vahiy olurlar. Chunki ularning asli yaratilishlarida farishtalik ruhoniyy sifatleri g'olibdur. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam yigirma uch yillik payg'ambarlik davrida Jabroil alayhissalomni yigirma to'rt ming marta ko'rganlari rivoyat qilinur. Jabroil alayhissalomning asli hilqatlarini ikki qayta ko'rgan edilar. Boshqa payg'ambarlarga bu miqdorda ko'rish muyassar bo'lmagan edi. Jabroil alayhissalom ko'pincha chiroylik odam suratida bo'lib ko'rinur edi. Ustoz shogirdini o'qitgandek, vahiy kelturgan Qur'on oyatlarini o'rgatur edi. Vahiy tarqab, Jabroil alayhissalom g'oyib bo'lgandin keyin ko'ngillarida yod qolgan oyatlarini bir harf qoldirmasdin sahobalarga o'rgatib ham yozdirur edilar. Ammo Payg'ambarimiz Jabroil alayhissalomdin vahiy olish chog'lari o'zlarida bir o'zgarish paydo bo'lur edi. Chunki ruhoniyy farishta bilan aloqa bog'lab, insoniy va jismoniy sifatlardin yiroqlashib turib, vahiy olish lozim kelur edi. Mana shu holda hozir turgan kishilar ko'zlarida Payg'ambarimizda bir o'zgarish paydo bo'lganini ko'rar edilar. Shundoqki, vahiy tushgan chog'da har qancha havo sovuq bo'lsa ham, tabarruk yuzlari, peshonalaridan ter oqib ketar edi. Agar tuya mingan chog'larida vahiy

tushsa, aning og'irligini ko'tarolmay tuya darhol cho'kar edi. Mana, vahiy kelishini aqlga siqqan miqdori shunchalikdur. Turkiy savodxon yoki chala olim kishilarga mo'ljallab yozilgan bu kitobimizda mundin ortiqroq yozishni munosib ko'rmadik. Katta olim odamlar bo'lsalar bu haqda yozilgan arabiy, forsiy kitoblarni ko'rsunlar. Har bir musulmonman, degan kishiga eng bo'lmasa shunchalik tushunib qo'yish lozimdur. Shundoq qilib, Payg'ambarimiz birinchi vahiy olishlarida Iqro surasi boshidin besh oyat yodlab, vahiy tamomidin so'ngra uylariga qaytdilar. Lekin farishta olami ila inson olamining aloqasi, Alloh taoloning shundoq ulug' farishtasi Jabroil alayhissalomning birinchi qatim (marta) ko'rib, undin vahiy olishlari, uning Payg'ambarimizni «O'qi», deb uch navbat siqib quchoqlashi, ulug' haybatga ega edi. Mana shuning uchun Payg'ambarimizning yuraklari, butun tanlari insoniyat taqozosi ila larzon bo'lib, titrab, har kim ko'rsa sezarlik, o'zlarida boshqacha bir turlik holat paydo bo'lgan edi. Payg'ambarimizning har bir ishlarini tekshirib turishni o'ziga odat qilgan Xadicha onamiz bu holatni ko'rib: «Voqea nimadur?» deb so'radi. Payg'ambarimiz esa boshdin-oyoq o'tgan hamma ishlarni bayon qilib, aytganlaridan so'ngra: «Ey Xadicha, bu ishning oxiri qandoq bo'lur ekan? Man o'zimdan qo'rqib qoldim», dedilar. Anda onamiz Xadicha aytdi: «Bundin siz hech andisha qilmang, inshaalloh, bu ishning oqibati xayrlik bo'lur, chunki siz bo'lsangiz yetim-esirlarga, faqir-miskinlarga mushfiq mehribondursiz. Hamisha ularga g'amxo'rlik qilursiz. Ochlarni to'ydirib, yalang'ochlarga kiyim berursiz. Yo'qsillarga yordamchi bo'lib, egasiz ojizlarga otalik qilursiz, bir yaxshilik bor ersa, kamoli ila sizda topilur. Endi sizda shunchalik oliy aloqalar, bu qadar ulug' sifatlarni xalq etgan Alloh taolo hech vaqt sizni zoye qilmas, deb o'ylayman. Bu sifatlarga yarashgudek sizga bir ulug' ne'mat ato qilishini umid qilaman. Sizdek pok sifatlik, oliy axloqlik zotga jinshaytonlar qandoq yaqin kela olsin?.. deb shu misollik bir qancha chiroylik so'zlar bilan ko'ngillarini ko'tardilar.

Yana bu voqeani aniqlash uchun onamiz Xadicha amakisi Varaqa ibn Navfal qoshiga kelib, butun voqeani bayon qilgandin keyin: «Jabroil kim bo'lur?» deb undin so'radi. Varaqa Jabroil nomini eshitganida: «Quddus, Quddus» deb sayha (ovoz) tortib, dedikim: — Ey Xadicha, bu nomning egasi — Muso alayhissalom, Iso alayhissalomga Alloh taolo tarafidin vahiy keltirguvchi ulug' farishtadur. Dunyoga kelgan barcha payg'ambarlarga Xudodin vahiy shu farishta keltirur. Muhammadning o'z og'zidan so'zini onglayin, ani kelturgil, — dedi.

Xadicha onamiz Payg'ambarimizni chaqirib, keltirgandin so'ngra, voqeani bayon qildilar. Anda Varaqa aytdi:

— Ey Xadicha, sizlarga bu ulug' davlat muborak bo'lsin. Tavrot, Injil kitoblarida bashorat berilgan oxirgi zamon payg'ambarligi Muhammadga nasib bo'libdur. Ey Muhammad, senga ko'rinish berib, vahiy keltirgan farishta o'tgan hamma payg'ambarlarga Xudodin vahiy keltiruvchidir. Oti Jabroil, Nomusi Akbar aning laqabidur. Bu ulug' mansab senga xush muborak bo'lsin. Bu yaqin kunlarda butun dunyo xalqini Islom diniga da'vat qil, deb Xudodin senga farmon bo'lgay. Shu chog'da arab mushriklari senga qarshi chiqqaylar, koshki men u kunlarda tirik bo'lsam edi, mol-jonimni ayamasdin senga yordam qilur edim, — deb so'zini to'xtatdi. Shu oradin ko'p uzun vaqt o'tmay, o'zi ham olamdin o'tdi.

Bu so'zlarni Varaqadin eshitgandin so'ngra Payg'ambarimizning ko'ngillari ancha orom oldi. Bu qadar ulug' vazifa egasi ekanlarini o'zlari ham bildilar. Shuning bilan bir qancha oy vahiy kelishi ham to'xtalib qoldi. Buning muddati haqida olti oydin uch yilgacha rivoyat bordur. Bu muddat ichida Payg'ambarimizning ruhoniy lazzat talabida zavqshavqlari ziyoda bo'lib, kecha-kunduz vahiy intizorligini tortar edilar. Bu ulug' ne'matning kechikib qolishidin andishaga tushib, buning hasratida g'am-qayg'ulari

haddin osha ko'paygani turdi. Bu judolik hasratidin shu daraja g'amlari g'alaba qildikim, ulug' tog'lar boshidin o'zlarini tashlab halok bo'lish fikri ham ko'ngillariga kelur edi. Ko'p toqatsiz bo'lib, ish og'irlashganda Jabroil alayhissalom ko'rinib: «Ey Muhammad, sabr qil, albatta, sen Payg'ambardursen, vaqt yaqindur» deb tasalli berur edi. Necha qayta shundoq ishlar Payg'ambarimizga voqe' bo'ldi. Har qachonkim tog' cho'qqisiga chiqib, yana shu xayolga kelsalar, darhol Jabroil alayhissalom ko'rinib, yuqorigi so'zlar bilan yupantirar edi.

Bu firoq kunlari oxiriga yetib, ikkinchi vahiy kelish davri boshlandi. Bu davrdagi birinchi vahiy bilan butun dunyo xalqini Islom diniga da'vat qilishga Xudodin amr keldi. Hammadin ilgari, aytishlari bilan Xadicha onamiz darhol iymon keltirdilar. Chunki uzun zamondin buyon bu ishdan xabari bo'lib, bu haqda qilgan farosatlari to'g'ri chiqqan edi. O'tgan payg'ambarlar bashorat bergan Xudo habibi — oxirzamon Payg'ambari ekanlariga gumonlari yo'q edi. Payg'ambarimiz rizoliklari uchun butun jonu moli bilan yordam berishga va'da berdi. Shu ikkinchi vahiy kelishi «Ya ayyuhal muddassiru» surasi ila boshlandi. «Qum, faanzir» («Tur, bajo et») xitobi ila xalqni Islom diniga da'vat qilishga Xudo tarafidin buyruhdilar.

Bu sirni dastlabda kimga aytsam bo'lur, degan fikrga tushdilar. Chunki uzun zamonlardin beri xalq din ishlaridin uzoqlashib, alarning oldida din butunlay yot narsa bo'lib ko'rinar edi. Ikkinchidan, u zamonda arab xalqini johillik, vahshiylik tamom qoplaganlikdan, axloqlari eng tubandagi darajada buzulgan edi. Urush-talash, odam o'ldirish ular uchun faxrlanarlik, suygan kasblari edi. Yosh bolalarni boqishdan qochib, faqirlikdan qo'rqib, urush-so'qishlarda dushman qo'lga o'lja tushishdan nomuslanib, ul bechoralarni tiriklayincha o'z qo'llari bilan ko'mar edilar. Buning ustiga ota-bobodin qolgan din, buzuq rasm-odatlariga qattiq berilgan edilar. Mana shuning uchun Payg'ambarimiz o'zlarini ularning yolg'onchi qilishlaridin qo'rqib, bu to'g'rida ko'p andishaga tushdilar.

Abu Bakr Siddiq bilan Payg'ambarimiz oralarida yoshliklaridin beri do'stlik aloqasi uzilmagan edi. Boshqalardin ko'ra, Payg'ambarimiz qandoq oliy axloqlik, chin so'zlik, pok dillik ekanliklari ul zot oldida ochiq ma'lum edi. Mana shuning uchun hammadin ilgari bu sirni Abu Bakr Siddiqqa aytib, dinga da'vat qildilar. Anda Abu Bakr Siddiq: «Ota-onam sizga fido bo'lsin, sizning yolg'on aytmasligingizga mening ishonchim komildur, shundoq bo'lsa ham bu haqda sizdan yana birorta mo'jiza ko'rsam, ishonchim bundin ham ortiqroq bo'lur edi», dedi. Payg'ambarimiz anda aytdilar: «Ey Abu Bakr, tijorat uchun chiqqan Quraysh karvoniga qo'shilib Shom safariga chiqqanimizda ikkovimiz bir tuyaga mingashgan edik, shul kunlarda havo g'oyatda isigan vaqti edi. Ana shunda bir parcha oq bulut borib kelgunchalik ustimizdin ajralmasdin soya solib turdi. Buni o'zingiz ham ko'rgan edingiz. Yana qandoq mo'jiza istaysiz?! deganlarida hazrati Abu Bakr Siddiq darhol: «Ashhadu annaka, rasulallohi haqqo» (ya'ni, «Guvohlik beramanki, siz Alloh taoloning haq payg'ambaridursiz»), deb Islom diniga kirdilar. Erkaklardin dastlab iymon keltirgan Abu Bakr Siddiq bo'ldi. U vaqtda Hazrati Ali yosh bola bo'lib, Payg'ambarimizning xizmatlarida edi. Bir kuni Payg'ambarimizning o'qigan namozlarini ko'rib: «bizning xalqimizda yo'q odat, bu qandoq ish?» deb so'radi. Anda Payg'ambarimiz: «Alloh taolo butun ins-jinlarga meni Payg'ambar qildi. Ibrohim Xalilullohning tutganlari Islom dinini Alloh tarafidin kelturdim. Butun xalqni ushbu dinga da'vat qilishga meni Alloh taolo buyurdi. Bundan boshqa dinlar barchasi botildur», deganlarida, Hazrati Ali balog'atga yetmagan yosh bola bo'lsa ham, haqiqatga tushunib darhol iymon kelturdi. Yana yosh bolalardin Payg'ambarimizning asrandi o'g'illari Zayd ibn Horisa iymon kelturgan edi. Bu bolani onamiz hazrati Xadicha qullikka sotib olib, o'zi ziyrak, xizmatga chaqqonligidin Payg'ambarimizga hadya qilib bergan edilar. Bir muddat o'tgan so'nggida Zaydning otasi bilan amakisi izlashib kelib, Payg'ambarimizga

yo'liqdilar. Alar: «Ey Muhammad, bu bola bizning o'g'limizdur, qabila urushlarimizning birida g'alaba qozongan dushmanlar qo'lga o'lja tushib ketgan edi, eshitsak, sizlarga sotib ketmish ekanlar, biz sizni oliy axloqlik, yumshoq ko'ngillik, yuqori himmatlik yaxshi odam, deb onglaymiz, bergan pulingizni qaytarish sharti bilan bolamizni sizdan so'rab keldik», deyishdi. Anda Payg'ambarimiz: «Bu ish ko'p yaxshi bo'lur edi, agar xohlasangizlar bolani o'z ixtiyoriga solsak. Kimni xohlasa, shu bilan qolsa, bunga biz ham rozi bo'lur edik», deganlarida, bu ishga ular ham rozilik bildirdilar. So'ngra Payg'ambarimiz Zaydni chaqirib:

— Mana bu kishi o'z otang, manovisi bo'lsa, amaking ekan, yiroq yerdin safar mashaqqatini tortib, sani izlashib kelibdurlar, endi nima dersan, mening bilan qolish yoki bular bilan ketish ixtiyori o'zingdadur, — dedilar. Shunda Zayd:

— YO Rasulalloh, hech kimni sizga teng ko'rmayman, sizdin boshqa bilan dunyoda turishni tilamayman, — deb ko'ziga yosh oldi.

Otasi buni ko'rib, ikki o'rtada qandog' mehr-muhabbat bog'langanini bilib, bolasining Payg'ambarimizdin ajralmasligiga ko'zi yetdi va ham har to'g'rilik bolasidin ko'ngli tinchib, o'z joylariga qaytdilar. Bu o'g'il voyaga yetib, dunyodin o'tguncha Payg'ambarimiz xizmatlarida bo'ldi. Sakkizinchi hijriyda voqiy bo'lg'on Mo'ta g'azotida uch ming kishilik islom askariga bosh qo'mondon bo'ldi. Bu qo'shinga Payg'ambarimiz oq tug' taqdim qilgan edilar. Alar o'zlariga son jihatdin qirq-ellik barobar dushman askariga hujum qildilar, askar boshlig'i Zayd saf oldida oq tug'ni tutib hujumga o'tdi. Tug' qo'llarida turgan holda yetmish yeridin yaralanib, shahid bo'ldi. Alloh undin rozi bo'lsin, bu voqeani o'z o'rni kelganda tafsili ila yozarmiz, inshaalloh. Qur'oni karimda butun sahobalardin yolg'iz shu zotning nomlari bordur.

Shundoq bo'lib, sekinlik bilan dinga kirish ishlari boshlandi. Hazrati Abu Bakr Quraysh qavmi ichida cho'ng obro'ga ega edilar. Chunki o'zlari oliy axloqlik, ochiqqo'llik, shirinso'zlik, xushmuomala, xush ulfati zot edilar. Xalq o'rtasida so'zlari mo'tabar edi. Shuning uchun quyida nomlari yozilmish kishilar hazrati Abu Bakr Siddiq tashviqi bilan iymonga kirdilar: Birinchisi, Aburahmon ibn Avf; ikkinchisi, Zubayr ibn Avvom; uchinchisi Usmon ibn Affon; to'rtinchisi, Talha ibn Ubaydulloh, va beshinchisi Sa'd ibn Abu Vaqqos. Bular Rasululloh sollallohu alayhi vasallam huzurlarida shahodat aytishib, bay'at berdilar. Islom dini asta-sekin xalq ichiga tarqala boshladi. Musulmonlar soni o'tiz-qirqaqa yaqinlashdi. Din so'zlari Makka shahriga yoyildi. Islom avvalida besh namoz farz bo'lmagan bo'lsa ham, ixtiyoriy namoz o'qish uchun Jabroil alayhissalom namoz vaqtlarini belgilab berdilar. Va ham o'qish tartiblarini o'rgatdilar. Sahobalar namoz o'qimoqchi bo'lsalar uch yilgacha Makka tog'lari ichida, dolda (xoli) joylarga kirib o'qirdilar.

Bir kuni hazrati Sa'd ibn Abu Vaqqos bir necha sahobalar bilan tog' ichida yashirincha namoz o'qib turgan chog'larida Quraysh mushriklaridan bir to'p kishilar kelib qoldilar. Bularning namoz o'qishlariga qattiq g'azablanib, inkor qildilar. Har ikki taraf o'z so'zlarini isbotlash ustida bir qancha tortishuvlar bo'ldi. Buning bilan mushriklar qanoatlanishmay, o'rtadin urush chiqardilar. Qurolsiz bo'lgan bu urushda hazrati Sa'd ibn Abu Vaqqos bir mushrikni tuya suyagi bilan urganda, uning boshi yorildi. Islom boshlanishida eng avval to'kilgan qon shu edi. Bu voqeadan keyin, panaroq, hazrati Arqam degan sahobaning uylariga yig'ilishib, Payg'ambarimizdin Qur'on o'qishar edilar. Payg'ambarimizning urug' tuqqanlaridan hazrati Alidan boshqa hech kim dinga kirmagan edi. Yolg'iz Quraysh qabilasi emas, butun arablar ichida ham din so'zlari tarqala boshladi. Ul zamon arablarida vahshiylik sifatlari g'olib bo'lib, madaniyatsiz, o'qish-yozishdan yiroq va ham ota-bobolarining botil dinlariga, buzuq rasm-odatlariga qattiq berilgan edilar. Shuning uchun Islom diniga, dastlab chiqishida eng qattiq qarshilik ko'rsatdilar. Borliq kuch-

quvvatlari bilan bu ishni yo'qotish, bosishning qasdiga tushdilar. Har kishi o'z yaqinlarini, urug'-aymoqlarini qandog' choralar bilan bo'lsa ham bu yo'ldan qaytarsun, bu haqda hech kim birovga rahm qilib, orachi bo'lmasin. Agar Muhammadning dinidan qaytmagan taqdirda, o'ldirishgacha, urish-qiynash choralari ko'rsin, deb Quraysh raislari o'zaro qattiq va'da-va'id qilishdilar. Mana shundoq bo'lib, balo boshlanib, imtihon kunlari musulmonlar boshlariga keldi. Chunki mo'minlik da'vo qilguvchi bandalarga dunyoda turlik ofatlarni yuborib, uni ko'rikdin o'tkazib sinashlik Alloh taoloning odatidir.

Payg'ambarimizning amakilari Abu Lahab, yana Quraysh raislaridin Abu Jahl — bu ikkovlari dinga qarshi qattiq kurashgan kishilardan edilar. Bilol Habashiy kabi himoyatchisi, qavmu qarindoshi yo'q musofir musulmonlar uchun ko'p qattiq kunlar bo'ldi. Hazrati Ammorning otalari Yosir Islom yo'lida har qancha og'ir azoblarga chidab, til uchida bo'lsa ham, jon qutqazish uchun «qaytdim», deyishga ko'ngillari rozi bo'lmadi. Haq yo'lida jonlarini qurbon qilib, shahid bo'lgan zotlarning birinchisi shu zotdir. Onalarini Abu Jahl alayhul la'na nozik joyiga nayza tiqib o'ldirdi. Asov tuyaga bog'lab, sudratib o'ldirdi, degan ikkinchi rivoyat ham bordur. Alar iymoni-e'tiqodlarini saqlash uchun bu qadar og'ir azoblar ostida sabr etdilar. Dinga qarshi kelgan bir og'iz so'zni til uchida aytishni ham o'zlariga loyiq ko'rmay, haq yo'lida jonlarini fido qilishga rozi bo'ldilar. Bilol Habashiyning xo'jasi uni Islom diniga kirgani uchun jazirama issiq kunlarda qora shag'al, mayda tosh ustiga qorni bilan yotqizib, ustidan yo'g'on og'ir toshlar bilan bostirib qo'yar edi. «Muhammadning dinidan qaytsang qaytganing, agar qaytmasang, ochlik, chanqoqlik — shu qiynov bilan o'ldururman», der edi. Kun issig'i, tosh qizig'i, buning ustiga chanqoqlik jonidan o'tib, bir qultum suvga zor bo'lib, og'ir tosh ostida: «Ahad, ahad», deya Xudo yodida ingrar edi. Mana shunchalik qattiq qiynovlarni tortsa ham, jon qutqazish uchun, til uchida bo'lsin «qaytdim», deyishga rozi bo'lmadi. Yo'q ersa, bundog' joylarda til bilan aytishga shariatda ruxsat bor edi.

Endi ishlar shundoq bo'laturib, yana musulmonlarning soni kundan-kunga ko'payishga turdi. Shunga qarab, mushriklarning ham jabru zulmlari haddidin ziyoda oshdi. Xudo tarafidin yondirilgan bu chiroqni so'ndirish uchun turlik choralar qo'llagan bo'lsalar ham, hech biridin natija chiqmadi. Iymon-e'tiqoddin nasibalik odamlarning irodalarini to'sish uchun ojiz qoldilar. Endi maqsadlariga yetish uchun boshqacharoq tadbir topishga kirishdilar. Shundoqki, Quraysh qabilasi raislaridin Abu Sufyon, Abu Jahl, Utba, Shayba, Abul Baxtari, Valid ibn Mug'ira, Os ibn Voil Payg'ambarimiz amakilari Abu Tolib oldiga kelishib:

— Ey Abu Tolib, seni hurmat qilishimiz har to'g'ridan bizga lozimdur. Chunki sen Quraysh qabilasi ichida ulug' yoshligimiz, ham bizning boshlig'imizdursan. Mana qarindoshing o'g'li Muhammad bizlarning va ota-bobolarimizning yo'lidan chiqdi. Ularning dinlarini tashladi. Ota-bobolarimizdan beri hurmatlanib kelgan butlarimizni va boshqa odatlarimizni xorladi. Sen bo'lsang, bizning dinimizdadursan, endi sen ikki ishdan birini ixtiyor qilishing kerak. YO uni yo'q qilib o'rtadin o'zing ko'targil, uning tashvishidin butun xalq qutulgan bo'laylik, yoki uni bizlarga taslim qilib topshirib bergin, qandoq jazo bersak, o'zimiz bilurmiz. Agar bu ishlarning hech biriga rozilik bermasang, sen ham Muhammadga qo'shilgan bo'lasan. Ana u vaqtda ikki tarafning biri yo'q bo'lguncha, o'rtamizda urushdin, qilichdin o'zga choramiz yo'q, — degan tahdidli shartni qo'yishdi. Abu Tolib Quraysh raislaridin bu so'zlarini tinglab, anchagina tashvishga tushdi. Va ham Payg'ambarimizni chaqirib:

— Ey qarindoshimning o'g'li, Quraysh raislari mana shu xilda so'zlar qildilar. Endi o'zing uchun, men uchun toqatimizdin tashqari biror ish bo'lib qolmasin, — dedi.

Payg'ambarimiz: «Quraysh so'zlaridin amakim andishaga tushibdur». Meni himoya qilishdin o'zini tortmoqchiga o'xshaydi, degan gumonga kelib:

— Ey amaki, jahon xalqi meni shu ishdin to'xtatish uchun o'ng qo'limga Quyoshni, chap qo'limga Oyni solmalar yana to'xtamayman. Alloh yordami bilan bu ishni olamga tarqaturman yoki shu yo'lda halok bo'lurman. Allohding o'zga hech yordamchim yo'q, — deb yig'laganlaricha o'rinlaridin turib ketdilar.

Payg'ambarimizni bu holda ko'rish Abu Tolibga qattiq ta'sir qilib, ko'ngli buzildi. Ortlaridin chaqirib:

— Ey qarindoshimning o'g'li, o'z ishingda erkin bo'l, suyganingcha so'zla, qasam Allohga bo'lsinkim, senga yordam qilishdin sira bosh tortmayman, har vaqt himoyatingda hozirman, — dedi.

So'ngra Quraysh raislari Abu Tolibning bu so'zlarini eshitdilar. Quraysh qabilasi ichida hasab-nasablik, husni-jamollik Ammor ibn Valid nomlik bir yigit bor edi. Quraysh raislari bu yigitni olib, Abu Tolib qoshiga keldilar va:

— Ey Abu Tolib, bilursanki, fazli-kamol, husni-jamolda bu yigitimizning barobari yo'qdur, buni Muhammad o'rnida boshga-bosh qilib kelturdik, u bo'lsa, seni-bizni dinimizga, o'tgan bobolarimizning yo'llariga qarshi chiqdi, o'zaro ittifoqimizni buzdi, qarindosh-urug'larimizdin ajratdi. Endi maslahatimiz shuki, Muhammadni bizga topshirib bersang, biz uni o'ldirsak, uning o'rniga bu yigitni sen o'g'il qilib olsang. Shuning bilan o'rtamizdagi dushmanchilik ishlarimiz bosilur edi, — dedilar.

Bu so'zni eshitgan Abu Tolibning achchig'i chiqib, g'azabi qo'zg'oldi, ularga qarab:

— Sizlar meni qandoq yomon, ziyonlik savdo qildirmoqchi bo'lasizlar, men sizlarning bolangizni boqishga olsam, sizlar mening bolamni o'ldirishga olasizlarmi? Bundoq ahmoqlik savdoni dunyoda qilgan hech kishi bormidur? — deb ularni mot qildi.

Shuning bilan Quraysh raislarining bu qilgan makri ham bo'shashga chiqdi. Lekin har urug' o'z ichidagi musulmonlarni dinlaridin qaytarish uchun qattiq kirishdilar. Alloh ulug' ajrlar bersin, ul kunlardagi mo'minlar haqida toqatdin tashqari urish-qiynashlar bo'ldi.

Bahona Abu Tolib bo'lib, mushriklar boshqa musulmonlarga qilgan zulmlarini Payg'ambarimizga qila olmadilar. Chunki Abu Tolib Payg'ambarimizni mushriklar ozoridin himoya qilishga qattiq ahd qilgan edi. Shu qilgan ahdini quvvatlash uchun Quraysh qabilasidan ikki urug'ni o'z yordamiga chaqirdi. Birinchisi, «Bani Hoshim», ikkinchisi, «Bani Muttalib» edi. Payg'ambarimizga nasab tarafidin Quraysh ichida eng yaqinlari ham shular edi. Chunki Hoshim Payg'ambarimizning uchinchi bobolaridur. Muttalib bilan Hoshim ota-boladurlar. Mana shu ikki avlod Islomga kirgan-kirmaganlari barobar Abu Tolib fikriga qo'shilib, Payg'ambarimizni dushmanlardin saqlash va u zotni himoya qilish tarafdorlari edilar. Mana shu sabablar bahona bo'lib, Alloh taolo Payg'ambarimizni boshqa mo'minlarga bo'lgandek, dushmanlar suiqasdlari va qo'l ozorlaridin o'zi saqladi. Ammo ular tarafidin til va dilozorliklari kundan-kunga ko'paymoqda edi.

AMIR HAMZANING ISLOMGA KIRISHI

Bir kuni Abu Jahl Payg'ambarimiz bilan din to'g'risida so'z talashib, ko'p adabsizlik qildi. Qoni qaynab, g'azabi qo'zg'olib, o'z haddini bilmay, urishga ham qo'l ko'tardi.

Payg'ambarimiz bu ishdin ko'p ma'yus bo'ldilar. Amakilari amir Hamzaning xotuni bu voqea ustida qarab turgan edi. Abu Jahlning qilgan beadabchiligi kishi chidab turarlik emas edi. Shunga ham Payg'ambarimiz sabr qildilar. Ammo ul xotunning

Payg'ambarimizga rahmi kelib, yig'laganicha uyiga qaytdi, chunki bu xotun yashirincha musulmon bo'lib, dinga kirganlardan edi. Shul kuni amir Hamza o'q-yoylarini osib, ov qilmoq uchun sahroga chiqqan edi, ovdin qaytib uyga kirsam, xotuni yig'lagan holda o'tiribdur, buni ko'rib: «Nima bo'ldi, na uchun yig'lading?» deb so'raganida, xotuni aytdi: — Men kim uchun yig'lar edim, yo'qlar, izlar qarindoshi qolmagan, o'z yurtida g'arib



- Lituz.com

Elektron kitoblar

**To'liq qismini Shu tugmani
bosish orqali sotib oling!**